

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH FAKULTETI**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

fakultet dekani

f.f.d. B.Abdushukurov

“ ” 2018-yil

5111200-O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lif yo'nalishi
4-bosqich 403-guruh talabasi **Ro'ziyeva Shohista To'layevnaning**
“Hikoya janrini o'rganish prinsiplari (Abdulla Qahhor ijodi misolida)”
mavzusida yozgan

B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I

Ilmiy rahbar

fil.fan.dok. Z. Mirzayeva

Adabiyot o'qitish metodikasi

kafedrasi mudiri

Taqrizchilar:

H. Ahmedov

Adabiyot o'qitish metodikasi
kafedrasi o'qituvchisi.

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Adabiyot o'qitish metodikasi
kafedrasi mudiri

fil.fan.dok. Z. Mirzayeva

“ ” 2018-yil

M.G'aznaboyev Toshkent
viloyati Yangiyo'l tumanidagi
34-sonli mакtab 1-toifali ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

TOSHKENT-2018

MUNDARIJA

KIRISH.	3
I bob.Abdulla Qahhor hikoyanavis	
1.1. Adulla Qahhor hikoyalarida hayot haqiqatining badiiy tasviri	9
1.2. Hikoya janrini o‘rganishda biografik metodning o‘rni.....	17
II bob. Ta’lim bosqichlarida Abdulla Qahhor hikoyalarini o‘rganish muammosi	
2.1 “O‘g‘ri” hikoyasini o‘rganishda interfaol metodlar (“Klaster”, “Aqliy hujum”, “Portret” usuli)ni qo‘llash.....	29
2.2 “Dahshat” hikoyasini o‘rganishda kreativ yondashuv	41
III bob. Ishning amaliyatga tatbiqi	
3.1. Ta’lim bosqichlari dastur va darsliklari tahlili.....	52
3.2. Dars ishlanmasi.....	55
Xulosa	68
Foydalanilgan adabiyotlar	72

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. XX asrning buyuk yozuvchilaridan biri Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho’lpon “Adabiyot nadir? maqolasida adabiyotning jamiyat hayotida tutgan o‘rniga baho berib, shunday yozadi: “Hech to‘xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa, millat yashar... Adabiyot chin ma’nosи ilа o‘lgan, so‘ngan qaralgan, majruh yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgan, o‘tkir yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladurgan, chang va tuproqlar to‘lgan ko‘zlarimizni artub tozalaydurg‘on buloq suvi bo‘lganlikdan bizga g‘oyat kerakdur”¹. Adib o‘zining bu maqolasi orqali adabiyotning, adabiy ta’limning mazmunini, mohiyatini belgilab berganday.

Chindan ham, adabiyot inson sezimlariga, his-tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazib, o‘quvchiga hayot falsafasidan saboq beradi: olam va odam murakkabliklarini idrok etish yo‘llarini ko‘rsatadi; o‘quvchiga yashash sirlarini o‘rgatadi, uning ma’naviy yuksalishiga ko‘maklashadi. Inson borliq qurshovida yashaydi. U olamning bitta bo‘lagi. Yaratiqlar ichida, borliqdagi mavjudodlar ichida eng azizi, mukarrami bu - INSONdir. Inson tafakkur qudrati, so‘zlay olish imkonи bilan yanada qudratli va sharaflı sanaladi.

Inson o‘z aql-u idroki bilan olamni inikos etadi, uning sir-sinoatlarini yechishga intiladi. Tafakkur til vositasida voqelanadi, yorqinlashadi. Demak, inson doimo so‘zga ehtiyoj sezib yashaydi. Insonning borliq haqidagi tasavvurlarini boyitishda, uning olam hodisotlarini teran anglashi yo‘lida adabiyot bemisoli kuch-qudratga egadir. Adabiyotni anglash, idrok etish, so‘z qudratidan bahra olish adabiy uquvni, zakovatni talab etadi.

Adabiy ta’lim asosini adabiyot o‘qitishning maqsad va vazifalari hamda uning mazmuni tushunchalari tashkil etadi. Komil shaxsni shakllantirish adabiyot

¹ Чўлпон. Адабиёт надир? –Т.:Чўлпон нашриёти, 1994. Б. 6-8

o‘qitishning bosh maqsadi. Bu umumiyl tushuncha bo‘lib, istiqbolni belgilaydi. Oddiy o‘quvchidan kitobxon o‘quvchini tayyorlash, bolalarni badiiy so‘zdan ta’sirlanadigan, uning josibasini his etadigan, haqiqiy badiiy asarni taniydigian, o‘qigan badiiy asarini tahlil eta biladigan va undan o‘ziga xulosa chiqarishga qobil, o‘z qarashlarini og‘zaki va yozma ravon ifoda eta oladigan, badiiy asar o‘qishni o‘zining birinchi hayotiy ehtiyojiga aylantirgan o‘quvchi shaxsini shakllantirish bosh vazifa sifatida turadi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida bu haqda shunday yozadilar: “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak”¹.

Adabiy ta’lim o‘quvchi dunyoqarashini shakllantiradi, uning olam va odam haqidagi tasavvurlarini boyitadi; oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratishga o‘rgatadi. Badiiy asarlarni o‘rganish orqali o‘quvchining falsafiy qarashlari kamol topadi, mushohadalari teranlashadi. Hayot – katta maktab. Shunday bo‘lsa ham o‘quvchini ana shu hayotning butun murakkabliklariga sabot va matonat bilan chidashga, uning zalvorli sinovlarini yengib o‘tishga, eng qiyin damlarda ham o‘zini yo‘qotmay oldinga intilishiga o‘rgatadigan beminnat maslahatchi, samimiy do‘st – bu adabiyot, adabiy ta’lim hisoblanadi.

“Maktabda adabiyotni so‘z san’ati sifatida o‘qitish o‘quvchilarda uni emotSIONAL qabul qilish, mustaqil fikrlash qobiliyatini kamol toptirishni taqozo etadi. O‘quvchida hayotni, hayotiy voqeа-hodisalarni bilishga, odamlar va ularning ruhiyatini anglashga ehtiyoj tug‘ilishi bilan adabiyotni anglashga qiziqish paydo bo‘ladi. O‘qituvchi badiiy asarni o‘qitish orqali o‘quvchilarda hosil bo‘lgan ana shu qiziqishni rivoj toptiradi, ularni san’at olamiga olib kiradi, o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasini hisobga olgan holda ularning badiiy didini o‘stiradi”¹.

¹ Каримов И.А. юқак маънавият – енгилмас куч. – Т: Маънавият, 2011. Б. 1

¹ Зуннунов Б.Бадий асар таҳлили методикаси. – Т: Ўқитувчи, 1989 Б. 4

Insoniyat uchinchi ming yillikda yuksak taraqqiyot sari dadil odimlamoqda. Uning tafakkuri, dunyoqarashi soatma-soat, daqiqama-daqiqa o‘zgarib, rivojlanib bormoqda. Har bir millat, xalq dunyo hamjimiyyati orasida o‘z o‘rni, nufuzi, obro‘-e‘tiborini saqlab qolish, taraqqiy etish, eng rivojlangan mamlakat maqomiga erishish kabi ezgu maqsadlar sari intilmoqda. Bunday oliv maqsadga erishish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, albatta. Ta’lim-tarbiya mushtarakligida, yoshlar ongida ezgulikning singdirilishida adabiyotning o‘rni beqiyos. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev «Yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do‘sit bo‘lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e`tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ‘ib qilishga alohida e`tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi».¹

Bizning asosiy maqsadimiz ta’lim jarayonini shaxsning hayotiy qiziqishlarini qondirishga, umumiy madaniyatini shakllantirishga, uning jamiyat hayotida moslashuvi, ta’lim va kasbiy dasturlarni ongli ravishda tanlay olishi hamda o‘zlashtira olishga qaratilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Adabiy ta’lim jarayonida yoshlar ma’naviyatini badiiy asarlar tahlili jarayonida yuksaltirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ijodkorlikka undash, ijodiy ishlarga yo‘llash masalalari metodist olimlar tomonidan o‘rganildi. Q.Yo‘ldoshev, B.To‘xliev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, H.Husanboyeva, R.Niyozmetova tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, metodik qo‘llanmalarda o‘zbek xalqining zabardast ijodkorlari yaratgan asarlarni adabiyot darslarida o‘rgatish yoritilgan².

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s’yezdidagi saylovoldi ma’ruzasi//“XXI asr”. 2016. 20 oktabr.

² Yo‘ldoshev Q. O‘qituvchi kitobi. (7-sinf darslik majmuasi uchun) –T.: O‘qituvchi, 1997. –230 b.; To‘xliev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: Yangi asr avlod, 2006. – b.52; Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Monografiya. –T.: Fan, 2006. –112 b.; Matchonov S. Kitob o‘qishni bilasizmi? –T.: O‘qituvchi, 1993. – 114 b; Husanboeva Q. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari. –T.: O‘zinkomtsentr, 2003. – b. 103; Niyozmetova R. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. Monografiya. – T.: Fan, 2007. – b. 215

Ta’lim bosqichlarida Abdulla Qahhor hikoyalarini o‘rgatish masalasi alohida o‘rganilmagan.

Adabiyotshunoslik yo‘nalishida A.Qahhor ijodini o‘rganishga taniqli adabiyotshunos O.Sharafiddinov³, M.Qo‘shevchenko⁴larning tadqiqotlarida e’tibor qaratilgan. Adabiyot o‘qitish metodikasi sohasida esa F.Egamberdievaning “Abdulla Qahhor ijodini pedagogik texnologiya asosida o‘rgatish”; O.Uzmonovning “Yozuvchi hayoti va ijodini adabiy tahlil va talqin usullariga tayanib o‘rgatish”; mavzusidagi nomzodlik dissertasiyalari yaratilgan. M. Ziyodullaeva o‘zining nomzodlik ishida yozuvchini mакtabda o‘rganish bo‘yicha ish olib borgan (2008- yil) bo’lsa, S.Ismatov ham o‘z qo’llanmasida (1978-yil) Qahhorni mакtabda o‘rganish yuzasidan fikrlarini bayon etgan. Metodik qo’llanma sifatida nashr etib boriladigan “Til va adabiyot ta’limi” jurnalida M.Mirzarahimova, G.Nurmatova, Q.Husanboyevalarning Abdulla Qahhor ijodini mакtabda o‘rganish bo‘yicha berilgan uslubiy maqolalari ko’rib o’tildi.

Metodist olim Sa’dulla Ismatovning “Mакtabda Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini o‘rganish” uslubiy qo’llanmasi ikki marta nashr etilgan (1967- va 1978-yillarda). Mazkur kitobda Abdulla Qahhor asarlarini to‘qqiz yillik mакtablarda o‘rganish masalasi alohida bobda, o’ninchisinfda ijodkor hayoti va ijodini o‘rganish alohoda bobda yoritilgan. Kitobda “Sinchalak” qissasini o‘rganishga salmoqli o‘rin ajratilgan. Kitobda Abdulla Qahhor ijodi bo‘yicha o’tkaziladigan yozma ishlar metodikasi ham berilgan. Bundan tashqari, adib ijodini sinfdan tashqari o‘rganish yo’llari ham ko’rsatilgan.¹ Taniqli metodist olim A.Zunnunovning “Badiiy asar tahlili metodikasi” nomli uslubiy qo’llanmasi (Toshkent, 1989) da ham Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasi, “So’nggi nusxalar” komediyasini tahlil qilish yo’llari haqida fikr- mulohazalar berilgan.

A.Tojiyevning “Adabiyot darslarida suhbat” kitobi (Toshkent, 1977) da ham A.Qahhorning “Asror bobo” hikoyasi, “Sinchalak” qissasini o‘rganishda suhbat metodining turli usullaridan foydalanish tavsiya etilgan.

³ Шарафиддинов О, Абдулла Каххор, - Т., 1988

⁴ Кушжонов М., Абдулла Каххор, - Т., 1988.

Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish, tadqiq qilish, adabiy ta’limda adib asarlarini o‘rganishning samarador metod va usullarini ishlab chiqish, ommalashtirish borasida juda ko‘p ilmiy, pedagogik ishlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Bu o‘rinda I.V. Borolinaning “Abdulla Qahhor” (1957), H.Abdusamatovning “Abdulla Qahhor” (1960), M.Sultonovaning “Abdulla Qahhor uslubi”(1967),M.Qo‘shchonov va U. Normatovning “Mahorat sirlari” (1968) nomli monografiyalarini, shuningdek, I. Sultonov, H. Yoqubov, P. Qodirov, O. Sharafiddinov, Sh. Yusupov, X. Doniyorov kabi olimlarning “Qahhorshunoslik”ka oid ilmiy tadqiqotlarini, S. Mirzaevning “Xalq sevgan adib” risolasini eslatib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi Abdulla Qahhor hikoyalarini o‘rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishdir. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

- Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish yuzasidan to‘plangan pedagogik tajribalarni tahlillash;
- Yozuvchi ijodiy merosini o‘rgatishning pedagogik-psixologik jihatlarini belgilash;
- Abdulla Qahhor ijodini yangilangan pedagogik tafakkur asosida o‘rgatishning samarador metod va usullari tizimini ishlab chiqish;
- Abdulla Qahhor hikoyalarining ahamiyatini o‘rganish;
- Umumta’lim maktablarida Abdulla Qahhor hikoyalariga ajratilgan soatlarni aniqlash;
- Hikoyalar tahlili orqali o‘quvchi ijodiy fikrlashini tekshirish;
- Abdulla Qahhor hikoyalari matni ustida ishlashda yangicha yondashuvlar talqinini o‘rganish;

Tadqiqotning obyekti. A.Qahhorning mакtab va akademik litsey darsliklarida berilgan “O‘g‘ri”, “Bemor” , “Dahshat” hikoyalari.

BMIning metodologik asosini Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning ma’naviyat, adabiyot va san’atga oid qarashlari tashkil etadi. Shuningdek, o‘zbek adabiyotshunos va metodist olimlaridan I.Sultonov, O.Sharafiddinov, M.Qo‘shchonov, U.Normatov, B.Nazarov, B.To‘xliev, M.Mirqosimova,

Q.Yo‘ldoshev, R.Niyozmetova va boshqalarning ilmiy-nazariy, metodik qarashlari ishimizni amalga oshirishda metodologik asos vazifasini o‘tadi.

BMIning ilmiy yangiligi. Ushbu tadqiqotda A.Qahhor hikoyalari tahlili orqali o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish masalasi o‘rganildi. Unda badiiy asar tahlilining o‘ziga xos xususiyatlarini tatqiq etildi. Yozuvchi hayoti va ijodini o‘rgatishda interfaol usullardan foydalanildi.

A.Qahhorning XX asr o‘zbek nasri rivojiga qo‘shegan hissasi haqida xulosalar chiqarishimizga yordam berdi. Kichik tadqiqotimiz davomida adabiy ta’limda yozuvchi ijodini, timsol yaratish mahoratini, uslubini yangicha yondashuv asosida o‘rganishning tizimli metod va usullari ishlab chiqiladi, amaliyotga tavsiya etiladi.

Maktabda, akademik litseylarda Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish yuzasidan metodik tavsiyalar berilgan bo’lsa-da, ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalar asosida o‘rganishga doir yaxlit bir ilmiy manba yo’q edi. Bitiruv malakaviy ishda ana shu jihatlarga e`tibor qaratildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. BMIda bayon etilgan ilmiy-nazariy xulosalardan oliy o‘quv yurtlarining talabalari, o‘rtta maxsus ta’lim tizimi uchun maxsus kurslar va seminarlarda foydalanish mumkin. Shuningdek,, tadqiqot XX asr milliy adabiyot tarixi, yangi davr o‘zbek adabiyotini rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi. BMI kirish, uchbob, xulosa va foydalaniłgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I bob. Abdulla Qahhor hikoyanavis

1.1. Abdulla Qahhor hikoyalarida hayot haqiqatining badiiy tasviri

Ta’lim - tarbiya jarayonining barcha jihatlarini qamrab oluvchi Davlat ta’lim standartlari bugungi kunda yosh avlodning vatanga sadoqat, yuksak axloqqa, ma’naviyat va ma’rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo‘lish hamda komil farzand bo‘lib yetishish yo‘lida qunt bilan ta’lim olishlari uchun kafolat bo‘lib xizmat qilmoqda. Ta’lim – tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri ta’lim – tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta’minalash, ta’lim tizimining ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ularni dars jarayonida tadqiq etishdan iboratdir.

Abdulla Qahhor o’z asarlarida xalq dardini, davr fojialarini ochiq-oshkora ifoda etgan. Abdulla Qahhor asarlarini yanada kengroq o‘rganish kerakligini qo’yish ham uning aynan xalq qalbining kuychisi bo’lganligidadir.

Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridandir. U o‘zining 40 yildan oshiqroq ijodiy faoliyatida barcha ijtimoiy sohalarni aks ettiradigan asarlar yaratdi, asarlari turli tillarga tarjima qilindi. Abdulla Qahhor ajoyib asarlari bilan o‘zbek adabiyotini yuksaltirish va jahonga tanitish borasida alohida xizmat ko‘rsatgan nodir iste’dod sohibidir. Adabiyotimizning hech bir sohasi yo‘qki, ko‘p qirrali talant egasi bo‘lgan Abdulla Qahhorning xizmati singmagan va u o‘z talantini namoyish qilmagan bo‘lsin. Abdulla Qahhor hikoya va ocherk janrida ham, qissa va romanchilikda ham, komediya va drama yaratishda ham hammani qoyil qoldirdi, bu janrlarda, xususan, hikoyachilikda, original va yetuk badiiy asarlar yaratdi.

Abdulla Qahhor so‘zga xasis, fikrga saxiy san’atkor. Adib ijodining fazilatlari ko‘p. U ko‘pchilikni qiziqtiradigan masalalar haqida yozadi, adabiyotda “qo‘riq”larni ochadi, yangi gap aytadi, yangi timsollar yaratadi. Abdulla Qahhorning badiiy ijodidagi novatorligi ham, avvalo, ana shundadir.

Yozuvchining asarlari yuksak badiyligi, g‘oyaning aniqligi, ijtimoiyligi, xalqchilligi bilan xarakterlanadi. Abdulla Qahhor ijodining bunday fazilatlari adabiy tanqidchilik va adabiyotshunosligimizda o‘z vaqtida atroflicha ochib berilgan hamda Abdulla Qahhor ijodiga haqli ravishda yuqori baho berilgan.

Abdulla Qahhor o‘zbek realistik hikoyachiligining asoschilaridan biri bo‘lib, adabiyotimizda bu janrning shakllanishi va o‘sishi uning nomi bilan chambarchas bog‘liqdir. Abdulla Qahhor G‘.G‘ulom, A.Qodiriy, Oydin, Oybek kabi yozuvchilar bilan hamkorlikda ijod etib, hikoya janrining ko‘pgina namunalarini yaratdi. Uning “Bemor”, “Anor”, “Millatchilar”, “Tomoshabog”, “O‘g‘ri”, “Maston”, “Qanotsiz chittak”, “Sat’atkor”, “Jonfig‘on”, “Yillar”, “Adabiyot muallimi” kabi hikoyalari o‘zbek adabiyotida hikoya janrining sezilarli darajada taraqqiy etishiga ta’sir ko‘rsatgan asarlar sirasiga kiradi.

Abdulla Qahhor hikoyalarini mazmuni va janr xususiyatlariga ko‘ra ikki guruhga ajratib tahlil etish mumkin. Bularning bir guruhini o‘tmish haqidagi hikoyalar tashkil qilsa, ikkinchi guruh hikoyalarning bosh qahramonlari zamondoshlarimizdir⁵.

Yaqin o‘tmishdagi o‘zbek voqeligi «Anor», «O‘g‘ri», «Bemor», «Tomoshabog», «Millatchilar» kabi hikoyalarda aks etgan. Keyinchalik esa, adib o‘tmish mavzuida yana «Dahshat» hikoyasini yaratdi. Shuningdek,, «O‘tmishdan ertaklar» qissa deb atalgan bo‘lsa-da, mohiyati bilan ayrim-ayrim hikoyalardan tashkil topgan. Shuning u ularni ham adibning o‘tmish haqidagi asarlari deb bilish mumkin.

Abdulla Qahhor qissa va roman janrlarini taraqqiy etishiga ham salmoqli hissa qo‘shdi. U “Sarob”, “Oltin yulduz”, “Qo‘shchinor chiroqlari”, “Sinchalak”, “O‘tmishdan ertaklar”, “Muhabbat” singari ajoyib roman va qissalar yozib, katta janrda ham mohir san’atkor ekanini isbotladi. Yozuvchi ajoyib o‘xhatishlar, go‘zal sifatlashlar, original mubolag‘alar va metoforalar, hikmatli so‘z va iboralar yaratish orqali o‘z fikrini g‘oyat siqiq va obrazli qilib ifodalaydi. Abdulla Qahhorni o‘ziga va o‘zga mualliflarga nihoyatda talabchan yozuvchi bo‘lganligini e’tirof etadilar. U qo‘zlyozma ustida ishlashdan hech bir erinmagan, o‘z asarlarini qayta-qayta ishlab pishitgan, ularga sayqal va jilo bergen. Asarlari kitob bo‘lib chiqqandan yoki pesa sahnaga qo‘yilgandan so‘ng ham qo‘lyozma ustida ishlashni davom yettiravergan.

⁵ Normatov U. Ustoz ibrati. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B.18

Abdulla Qahhor adabiyotimizning kelajagi uchun jon kuydiruvchi, yosh yozuvchilarni tarbiyalab voyaga etkazishni doimo muhim ish deb bilgan, bu sohada ko‘p yozuvchilarga namuna ko‘rsatgan, adabiyotimizda o‘ziga xos maktab yaratgan va ko‘plab shogirdlar etishtirgan ustoz san’tkor sifatida qadrlidir.

Adabiy ta’limda Abdulla Qahhor ijodi va u yaratgan hikoya, qissa va romanlarni o‘rganishga doimo jiddiy e’tibor qaratilgan. Umumta’lim maktab dasturlariga yillar davomida uning “O‘g‘ri”, “Bemor”, “Adabiyot muallimi”, “Kampirlar sim qoqdi”, “Asror bobo”, “Sinchalak”, “Anor”, “Sarob”, “Qo‘shchinor chiroqlari” kabi asarlari kiritilgan, chuqur o‘rganilgan. Amaldagi umumta’lim maktablari adabiyot dasturida adibning “O‘g‘ri”, “Dahshat”, “Bemor”; akademik litsey o‘quchilarini uchun mo‘ljallangan adabiyot dasturida “Sarob” romanini o‘rganish ko‘zda tutilgan.

Ta’lim bosqichlarida Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish yuzasidan yetarli tajribalar to‘plangan, ommalashtirilgan. Lekin sobiq sho‘rolar davrida adib asarlarini o‘rganish, tahlil qilish komfirqa mafkurasi doirasida, uning talablari asosida o‘rganilgani bugun hech kimga sir emas. Istiqlol sharofati bilan adabiyotga adabiy ta’limga e’tibor keskin o‘zgardi, ijobiy yuksalishlar davri boshlandi. Adib asarlarini o‘rganishga yangilangan badiiy tafakkur asosida yondashish; uning asarlarini o‘rganish orqali o‘quvchilarda ma’naviy va mafkuraviy immunitetlarni hosil qilish; adib mahorati, iste’dodini tadqiq qilish vositasida o‘quvchilarning fikrlash quvvatini oshirish, ona tilimiz qadrini ulug‘lash, tildan foydalanish madaniyatini yanada rivojlantirish; o‘quvchilarning adabiy tur va janrlar haqidagi ilmiy–nazariy bilimlarini adib asarlari misolida yanada yorqinroq aks ettirish; adib asarlarini zamonaviy axborot vositalari va yangilangan pedagogik texnologiyalar asosida o‘rgatish ko‘lamini kengaytirib, adabiy ta’lim maqsad va vazifalarining ro‘yobini ta’minlash kabi ezgu maqsadlar mavzumizning, ilmiy ishimizning dolzarbligini ham belgilab beradi.

Adabiy ta’limda yozuvchi ijodini o‘rganish, tadqiq qilish hamisha dolzarb masalardan biri sanalgan. Ijodkorning o‘ziga xos uslubini, timsol yaratish mahorati, so‘zga bo‘lgan e’tiborini kuzatish, tahlil etish orqali badiiy asarni idrok qilish, uning

g‘oya va mazmunini to‘la tushunish, ayni paytda, satrlarga singdirilgan ma’no sirlaridan voqif bo‘lish imkoniyati yanada kengayadi. S.Ismatovning “Maktabda Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini o‘rganish”¹ adabiyot o‘qituvchilari uchun qo‘llanmasi ham adib ijodiy uslubini tahlil etishga yo‘naltirilgan. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’lim vazirligining ilmiy-metodik jurnali “Til va adabiyot ta’limi” jurnalida adib ijodini o‘rganish yuzasidan qator yillar davomida turkum maqolalar berilgan: S.Matjonov, X.Saidmurodovlarning “Ulug‘ adib ijodini o‘rganishda oshkora muloqot”², M.Nurmatovaning “Uch avlod Abdullasi” sinfdan tashqari mashg‘ulot ssenariysi³, X.Hamraqulovaning “Sarob” romanida shaxs fojiasi va uning tanqidchilikda o‘rganilishi”⁴, M.Mirzarahimovaning “7-sinfda Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasini o‘rganish”, G.Nurmatovaning “6-sinfda Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasini o‘rganish”⁵, SH.Mahkamovaning “Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish tajribasidan”⁶, R.Umrzaqovning “Bemor” hikoyasining struktural tahlili”⁷, S.Abdurahmonovaning “Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasini o‘rganish usullari”⁸ kabi metodik maqolalarda adib ijodini o‘rganishning samarador metod va usullari qayd etilgan. Shunday bo‘lsa-da, adib ijodini yangilangan pedagogik tafakkur asosida o‘rganish ishlari hali o‘z yakunini topgan emas.

Abdulla Qahhor ijodining boshlanishidayoq hajvga moyil ekanini namoyish qilgandi. Keyinchalik «Qishloq hukm ostida», «Sarob» kabi asarlarida ham hajviy lavhalarga, hajviy tasvirga anchagina o‘rin bergen. Lekin shunday bo‘lsa-da, uning

¹ Исматов С. Мактабда Абдулла Қаҳхорнинг хаёти ва ижодини ўрганиш. – Т: Ўқитувчи. 1978.

² Матжонов С., Saidmurodov X. Улуг‘ адаб ижодини ўрганишда ошкора мулоқот. // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 1910, № 10, 16-17-бетлар.

³ Нурматова М. “Уч авлод Абдулласи” // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 1993, № 2, 23-25-бетлар.

⁴ Ҳамрақулова Х. “Сароб” романида шахс фожиаси ва унинг танқидчиликда ўрганилиши. // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2002, № 4, 53-58-бетлар.

⁵ Нурматова Г. 6-синфда Абдулла Қаҳхорнинг “Бемор” ҳикоясини ўрганиш. // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2010, № 3, 15-20-бетлар.

⁶ МАҳқамова Ш. Абдулла Қаҳхор ижодини ўрганиш тажрибасидан. // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2011, № 4, 11-14-бетлар.

⁷ Умрзаков Р. “Бемор” ҳикоясининг структурал таҳлили. // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2012, № 2. 17-21-бетлар.

⁸ Абдураҳмонова С. Абдулла Қаҳхорнинг “Ўгри” ҳикоясини ўрганиш усувлари. // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2012, № 6, 13-18-бетлар.

hajviyot bobidagi iste'dodi butun bo'y-basti bilan XX asrning 30-yillardagi hikoyalarida namoyon bo'ldi. Bular «Mayiz yemagan xotin», «Jonfig'on», «Munofiq», «Adabiyot muallimi», «San'atkor», «O'jar», «Qizlar» kabi hikoyalardir. Bir vaqtlar adabiyotshunoslar adibning bu hikoyalarini keskin tanqid ostiga oldilar va unga turli-tuman siyosiy ayblar qo'ydilar. Ularning tasdig'icha, Abdulla Qahhor bu hikoyalarida sho'ro kishilarining nuqsonlarini, sotsialistik tuzumning kamchiliklarini tanqid qilgan, binobarin, u sotsialistik realizm metodidan chekingan, sho'ro voqeligini buzib ko'rsatgan. Bunday tanqid hech qanday real zaminga ega emas edi⁹.

Abdulla Qahhor hikoyalarida hayotdagi va inson tabiatidagi turli-tuman nuqsonlarni tanqid etgan. Odamzod mavjud ekan, bahillik, johillik, ochko'zlik, maqtanchoqlik, hudbinlik va boshqa qusurlar, albatta, yashaydi. Bu qusurlar kimdadir kamroq bo'lishi mumkin, lekin bu illatlar insonning qadr-qimmatini pastga uradi, chinakamiga barkamol bo'lishiga halaqit beradi. Jahon adabiyoti namunalarida bunday masalalar doimo dolzarb bo'lган.

Abdulla Qahhor hikoyalarida hayotdagi va inson tabiatidagi turli-tuman nuqsonlarni tanqid etgan. Odamzod mavjud ekan, bahillik, johillik, ochko'zlik, maqtanchoqlik, hudbinlik va boshqa qusurlar, albatta, yashaydi. Bu qusurlar kimdadir kamroq bo'lishi mumkin, lekin bu illatlar insonning qadr-qimmatini pastga uradi, chinakamiga barkamol bo'lishiga halaqit beradi. Jahon adabiyoti namunalarida bunday masalalar doimo dolzarb bo'lган.

Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotida o'z uslubiga, o'z ovoziga ega bo'lган, adabiyotimiz taraqqiysiga sezilarli ijobiy hisa qo'shgan zabardast adiblarimizdan biridir. Uning yorqin ijodi katta mahorat maktabi sifatida hamisha ijodkorlarning diqqat markazida bo'lган. Uning asarlariga qayta-qayta murojaat qilmagan, uning uslubiy mahoratidan bahra olmagan, uni o'ziga ustoz deb sanamagan ijodkorlarni topish yaqin-yaqingacha aslo mumkin emas edi; adabiy ta'lim jarayoni Abdulla Qahhor asarlari bilan mazmunga boy, ma'rifatga to'la bo'lган.

⁹ Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O'zbekiston, 2008. – B.334

Adabiyotimizning yirik vakili, o‘zbek professional prozasining oyoqqa turishida tinimsiz mehnat qilgan yozuvchi Abdulla Qahhor ijodi necha o‘n yillardan buyon xalqimizning ongu shuurini band etib kelmoqda. Adibning badiiy mukammal hikoyalari, qaytarilmas xarakterlar talqini joy olgan qissa, roman va pesalari, aforizm darajasidagi tesha tegmagan fikrlari hali uzoq yillar ko‘p avlodlar uchun mulohaza ob’ekti bo‘lib qolishi shubhasizdir¹.

“... ustoz har bir uchrashuvga yangi, tesha tegmagan gap bilan kelar edilar, bir soatmi, ikki soatmi butun auditoriya u kishining og‘izlariga qarab o‘tirardi. Bu – noyob talant namunasi edi, bu uncha-muncha notiqning qo‘lidan keladigan ish emas edi. ... ustoz, umuman, jamiyatga, xalqqa, insoniyatga xiyonat bo‘ladigan hamma narsaga murosasiz edilar. Ustozning murosasiz bo‘lishlari bitta narsa bilan izohlanadi xolos: xalqpavarlik. Xalqparvarlik ustozning shiori edi...”².

Abdulla Qahhor ajoyib asarlari bilan o‘zbek adabiyotini yuksaltirish va jahonga tanitish borasida alohida xizmat ko‘rsatgan nodir iste’dod sohibidir. Adabiyotimizning hech bir sohasi yo‘qliki, ko‘p qirrali talant egasi bo‘lgan abdulla Qahhorning xizmati singmagan va u o‘z talantini namoyish qilmagan bo‘lsin. Abdulla Qahhor hikoya va ocherk janrida ham, qissa va romanchilikda ham, komediya va drama yaratishda ham hammani hayron qoldirdi, bu janrlarda (xususan, hikoyachilikda) original va etuk badiiy asarlar yaratdi.

Abdulla Qahhorning asarlari yuksak badiyligi, g‘oyaning aniqligi, chuqr ijtimoiyligi va xalqchilligi bilan xarakterlanadi. Abdulla Qahhor ijodining bunday fazilatlari adabiy tanqidchilik va adabiyotshunosligimizda o‘z vaqtida atroficha ochib berilgan hamda Abdulla Qahhor ijodiga haqli ravishda yuqori baho berilgan. Turkman adabiyotining oqsoqoli Berdi Kerboboev “Abdulla Qahhor faqat o‘zbek yozuvchisigina bo‘lib qolmay, u ummumittifoq yozuvchisidir. Shu bilan birga, Abdulla Qahhor zamonamizning sevikli yozuvchilaridan biridir”, degan edi.

K. Simonov, A.Surkov, N.Tixonov, Vera Smirnova, Irina Borolina kabi rus yozuvchi va adabiyotshunoslari, Ivan Le singari ukrain, Garegin Sevuns kabi arman

¹ Раҳмон Қўчқор. Мен билан мунозара қилсангиз... –Т.: “Маънавият”, 1998, 4-бет.

² Асрор Самад. Абдулла Қахҳор ҳикматлари. – Т.: “Ўзбекистон” 1990, 4-5-бетлар.

adabiyoti oqsoqollari uchun ham Abdulla Qahhor ijodiga ana shunday yuqori, adolatli baho bergenlar.

Abdulla Qahhor hayotni va inson psixologiyasini chuqur o‘rganish tamoyillarini N.V. Gogol, A.P. Chexov, A. Qodiriy singari ustoz adiblarning mahoratini jiddiy o‘zlashtirish orqali asardan asarga o‘sma bordi, hikoya yozish “siri”ni “faktlar rudasidan haqiqat nuqrasini topish” san’atini egalladi.

Abdulla Qahhor hikoyalarda aytilmoqchi bo‘lgan fikr, g‘oya, maqsad nasihat qilish yo‘li bilan emas, aksincha, timsollarning faoliyatidan, asarning umumiyligi ruhiyatidan keltirilib chiqariladi¹.

Ozod Sharafiddinovning “Abdulla Qahhor”² – adib hayoti va ijodiy faoliyati haqida lavhalar kitobi ijodkor hayoti va ijodini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif o‘z asari debochasida shunday yozadi: “O‘zbek adabiyoti asoschilaridan biri – Abdulla Qahhor bosib o‘tgan sharaflari va mashaqqatli yo‘l har bir qalamkash, har bir oddiy kitobxon uchun ibrat mакtabidir. Ulkan iste’dod egasi so‘nggi nafasigacha adabiyot dargohini muqaddas bildi, so‘zning sofligi, jangovorligi va hayotiyligi uchun qat’iy kurashdi. Mana shu tufayli adib yaratgan g‘oyaviy – badiiy yuksak romanlar, qissalar, hikoyalari, pesalar adabiyotimiz xazinasidan munosib o‘rin egalladi”.

O‘zbekiston Qahramoni munaqqid Ozod Sharafiddinov Abdulla Qahhorning yaqin shogirdlaridan biridir. Uning mazkur kitobi, avvalo, shogirdning ustozga bo‘lgan cheksiz muhabbatining ifodasi, qolaversa, kitobxonlarni adib haqida yanada boy ma’lumotlar bilan ta’minlash, o‘sib kelayotgan yosh avlodnining badiiy tafakkurini o‘stirish, ijod ostonasiga qadam qo‘yayotgan yosh ijodkorlarga ijodiy ibrat va ilhom berish kabi maqsadlarni ham ko‘za tutgandir. Kitobda: Bolalik so‘qmoqlari, Ilk izlanishlar, ikkinchi cho‘qqi, kichik janrning katta olami, Qalam yolkini, Adib saboqlari, Ulg‘ayish yo‘lida, “Sinchalak”, So‘nggi sahifalar, Adib hayoti solnomasi, Ilova, Abdulla Qahhor: Ozgina o‘zim haqimda fasllari mavjud

¹ Мирзаев С. Ҳалқ севган адаб – Т.: “Ўзбекистон”. 3-5-бетлар.

² Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳхор. – Т: “Ёш гвардия”, 1988. 2-бет.

bo‘lib, har bir fasl adabning ma’lum ijod qirrasini kashf etishga yo‘naltirilgani bilan yanada xarakterlidir.

1.2. Hikoya janrini o‘rganishda biografik metodning o‘rni

Adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari juda keng qo‘llanilib, ular badiiy asarni tushunish jarayonining bir-biriga bog‘liq jihatlaridir. Badiiy asarni tushunish, uning mazmun mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozirdir. Tahlil atamasi odatda ilmda "analiz" deb yuritiladigan istilohning sinonimi sifatida tushuniladi. Analiz esa, ma’lumki, butunni anglash uchun uni qismlarga ajratishni, qismning butun tarkibidagi mohiyatini, uning boshqa qismlar bilan aloqasi va butunlikning yuzaga chiqishidagi o‘rnini o‘rganishni ko‘zda tutadi. Ayrimlar badiiy asarni tirik organizmga qiyos etishadi-da, "uni qismlarga ajratish jonsiz tanaga aylantirishdan boshqa narsa emas" degan qarashga tayanib tahlilga qarshi chiqadilar. Biroq bu xil qarash asossizdir. Zero, adabiyotshunoslikdagi tahlil ham — o‘qish, faqat bunda badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o‘qish tushuniladi. Bu xil o‘qish jarayonida tadqiqotchi badiiy asarni qismlarga ajratarkan, uning badiiyat hodisasi sifatidagi mavjudligini, undagi o‘quvchi ongi va ruhiyatiga ta’sir qilayotgan, uning u yoki bu tarzda tushunilishiga asos bo‘layotgan omillarni o‘rganadi.

Talqin atamasini biz "interpretatsiya" istilohining sinonimi sifatida tushunamiz. Talqin badiiy asarni sharhlash, uning mazmun mohiyatini, undagi badiiy konsepsiyanı idrok etish demakdir. Keng ma’noda "talqin" so‘zi o‘zga tomonidan aytilgan gap yoxud yozilgan asar (ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy va h.) mazmunini anglash, uni ma’lum yaxlitlikda tushunish va tushuntirish (adabiyotshunosning maqsadi tushunishning o‘ziga emas, tushuntirish hamdir) ma’nolarini anglatadi. Shu ma’noda qaralsa, mumtoz adabiyotshunosligimizda, umuman, o‘tmish ilmida "talqin" so‘zining ma’nosи qisman "sharh", "tafsir" atamalari bilan ham berilgan. Yana ham aniqroq aytsak, talqin badiiy asardagi "obrazlar tili"ni "mantiq tili"ga o‘girmoq, obrazlar vositasida ifodalangan mazmunni tushunish va tushuntirmoqdir.

Yuqorida aytdikki, badiiy asarni tushunish jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozir, ular tushunish jarayonining ikki qirrasidir. Aytaylik, "o‘quvchi badiiy asarni tushundi" degani, mohiyatan, "o‘quvchi asarni o‘zicha

"talqin qildi" deganidir. Ayni paytda, uning asarni tushunishida tahlil unsurlari ham mavjud, zero, oddiy o'quvchi ham tushunish jarayonida asar qismlarini (mas., alohida epizodlarni, personajlarni, ularning turli holatlardagi xatti-harakati, gapso'zlarini va h.), ularning o'zaro mazmuniy aloqalarini tasavvur qiladi. Ilgari ham aytganimizdek, konkret badiiy asar turli o'quvchilar tomonidan turlicha tushunilishi mumkin. Biroq shunisi ham aniqki, o'quvchilar ongidagi minglab talqinlarni umumlashtiradigan mushtarak nuqtalar ham mavjud. Demak, konkret asar talqinlari nechog'li turfa bo'lmasin, ularning chegaralarini belgilab beruvchi muayyan asos, deylik, yadro(javhar) mavjudki, barcha talqinlar shu yadro atrofida hosil bo'ladi. Bu yadro esa - badiiy asarning o'zi, badiiyat hodisasini o'zida moddiylashtirgan badiiy matndir. Ayon bo'ldiki, badiiy asarni tushunish jarayoni obektiv va subektiv ibtidolardan tarkib topar ekan: agar bu o'rinda talqin qilayotgan shaxsni subektiv ibtido deb olsak, badiiy matn obektiv ibtidodir.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, agar talqin qiluvchi shaxs badiiy matnni yetarli darajada bilmasa, asar qismlarini, ularning o'zaro aloqalarini yetarli tasavvur qilolmasa, uning talqini subektivlik kasb etadi. Boshqa tomonidan, badiiy adabiyotning obrazlar orqali fikrashi, obrazning esa assotsiativ tafakkur mahsuli ekanligini e'tiborga olsak, talqinning subektsiz mavjud emasligi ayon haqiqatdir. Chunki ijodkorning assotsiativ fikrashi mahsuli o'laroq yaratilgan va asarda aksini topgan obrazning mazmun qirralari faqat subekt ongidagina (ya'ni, uning ham assotsiativ fikrashi asosida) qayta tiklanishi mumkin bo'ladi. Aytilganlar tushunish jarayonida tahlil va talqinning har vaqt hozirligining yorqin dalilidir. Oddiy o'quvchidan farq qilaroq, adabiyotshunos badiiy asarni talqin qilarkan, tahlilga tayanadi, uning talqini tahlil asosida yuzaga kelgani uchun ham ilmiy sanaladi. Shu ma'noda tahlil badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qish va uqish demakdir.

Yuqorida gilardan ma'lum bo'ladiki, badiiy asar tahlilining maqsadi - asarni tushunish (asarni baholash ikkilamchi maqsad). Xo'sh, "asarni tushunish" deganda nima nazarda tutiladi? Bu masalada ham adabiyotshunoslikda turlichalik mavjud: ayrimlar asarga muallif tomonidan yuklangan mazmunni tushunishni nazarda tutsalar, boshqalari asarda tasvirlangan narsalardan (obektiv ibtidodan) kelib

chiqadigan mazmunni tushunishni nazarda tutadilar. Bu qarashlarning birinchisiga ko‘ra tushunish jarayonida tahlil yetakchilik qilsa, ikkinchisida talqinning mavqeい ustunroq ekanligi tayin; birinchisi badiiy asarni uning ichki va tashqi aloqalarini birlikda olib o‘rganishni (kontekstul tahlil) taqozo etsa, ikkinchisi badiiy asarga alohida mavjudlik sifatida qarab, uning ichki aloqalarini o‘rganish (immanent tahlil) bilan cheklanadi. Biroq mazkur qarashlarning ikkisini ham mutlaqlashtirib bo‘lmaydi, bu o‘rinda "oraliq" mavqenining egallangani, har ikki yo‘sindagi tahlilning ham mavjudligini, ularning bir-biridan ko‘zlagan maqsadi va ahamiyati jihatidan farqli ekanligini tan olingani to‘g‘riroq bo‘ladi.

Tushunish jarayonining nazariy muammolarini o‘rganuvchi soha — germenevtikaning asosiy qoidasi shuki: qismni butun, butunni qism orqali tushunish darkor. Bu qoida yuqorida tahlil yo‘sinlarining ikkisiga ham birdek aloqador. Faqat bu o‘rinda immanent tahlil "kontekst" tushunchasini asar doirasi bilan cheklab olsa, kontekstual tahlilda "kontekst" tushunchasining ko‘لامi kengayib boradi (konkret asar "yozuvchi biografiyasi", "muallif yashagan davr shart-sharoitlari", "muallifning ijodiy merosi", "asar yaratilgan davr adabiyoti", "milliy adabiy an`analar" kabi kontekstlar doirasiga kiradi). Kontekstual tahlil asarga muallif tomonidan yuklangan mazmunni tushunishga yo‘l ochsa, immanent tahlil asarda tasvirlangan narsalarga (va, albatta, undagi muallif obraziga) tayangan holda o‘quvchiga o‘z mazmunini shakllantirish imkonini beradi. Mutaxassisdan farqli o‘laroq, oddiy o‘quvchilarning asarni tushunishida immanent tahlil unsurlari yetakchilik qiladi (shu bois ham o‘quvchilar ongida konkret asarning turfa talqinlari mavjud). Zero, aksariyat o‘quvchilar uchun konkret asarning qay maqsadda, qanday omillar ta’sirida yozilgani ahamiyatsiz - ular asarning o‘zinigina taniydlilar, uning o‘zidangina zavq oladilar. Aksincha, adabiyotshunos uchun bularning bari muhim, chunki asarni tarixiylik tamoyiliga tayanib, biografik yoxud sotsiologik metodlar (kontekstual tahlil) asosida tekshirib chiqarilgan xulosalar adabiy-nazariy tafakkur rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ular, tabiiyki, badiiy adabiyot rivoji hamda badiiy did tarbiyasiga faqat bilvosita ta’sir qiladilar, bu xil xulosalar bilan badiiy didga bevosita ta’sir qilishga urinish esa adabiyotga

faqat ziyon keltiradi. Demak, badiiy asarni alohida butunlik sifatida ham, kontekst doirasida ham tushunish (tahlil va talqin qilish) mumkin, - ikkisining ham o‘z o‘rni, vazifasi va maqsadi tayinlidir.

Badiiy asarni kontekstual tahlil qilishda unga turli jihatlardan yondashish mumkinki, shu asosda bir qator tahlil metodlari haqida gapirish mumkin bo‘ladi.

Sotsiologok tahlil metodi tadqiotchini badiiy asar voqeligi bilan real voqelik munosabatlari, uning tarixan haqqoniylik darajasi, hayot haqiqati bilan badiiy haqiqat munosabati kabi masalalarni o‘rganishga yo‘naltiradi. Bu xil yondashuv asarning g‘oyaviy-mafkuraviy tomonlarini tahlil qilarkan, qahramonlarning xarakter xususiyatlari, asardagi konfliktlar tabiat, obrazlar tizimi va h. badiiy unsurlarning ijtimoiy ildizlarini oolib beradi. Hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanish jarayoni, xarakter va prototip, tarixiy shaxs obrazi va real tarixiy shaxs munosabati kabi ijod jarayoni bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishda ham sotsiologik yondashuv asos vazifasini o‘taydi. Sotsiologik metod adabiyotshunoslikda muhim ahaiyatga molikligi shubhasiz, biroq uni boshqalardan ustun qo‘yishlik, unga ayricha e`tibor berishlik adabiyot uchun zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinki, bunga yorqin misollarni sho‘ro adabiyotshunosligidan istalgancha topishimiz mumkin bo‘ladi. Masalan, sho‘ro adabiyotshunosligidagi vulgar sotsiologizm ko‘rinishlari ayni shu metodning mavqeini oshirishning natijasi edi. Badiiy asar tahlilida shu metodgagina tayangan va shuning asosidagina baholagan tanqidiy maqolalar keyincha ularning mualliflarini qatag‘on qilish uchun dastakka aylandigina emas, o‘quvchi ommani o‘sha ijodkorlarni "xalq dushmani", asarlarini "zararli" deb tushunishga tayyorladi. Tarixiy-madaniy tahlil metodi badiiy asarni milliy madaniy an`analar, shuningdek, davr adabiy-madaniy kontekstida o‘rganishga qaratilgandir. Ma’lumki, badiiy asar madaniy-adabiy an`analar zaminida dunyoga keladi, uning qatorbadiiy xususiyatlari shu kontekstdagina yorqin namoyon bo‘ladi, anglashiladi. Masalan, Cho‘lponning qator she`rlari borki, ularning mazmun mohiyati mumtoz adabiyotimiz, xususan, tasavvuf she`riyati kontekstdagina o‘zining ramziy ma’nolarini ochishi, tushunilishi mumkin bo‘ladi. Yoki "O‘tgan kunlar"dagi bir qator xususiyatlar

(Otabekning oshiqligi sahnalari, syujet motivlari, maktublar va h.) folklor va mumtoz dostonchilik an`analari zaminida yetishgani shundoq ko‘zga tashlanadi. Mazkur yondashuv badiiy asarga umummilliy madaniyatning vakili sifatida qarashi diqqatga molikki, bu xil yondashuv adabiy jarayondagi yangi hodisalarning tub omillarini anglash imkonini beradi.

Qiyosiy metod badiiy asarni boshqa asar(lar) bilan qiyosan tahlil qilishni nazar da tutadi. konkret asarni o‘tmishda yoki u bilan bir paytda, boshqa milliy adabiyotda yoki o‘zi mansub adabiyotda yaratilgan talqin etishi mumkin. Qiyoslash obekti tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Deylik, asarni o‘tmishda yaratilgan asar bilan qiyoslash undagi an`ana va yangilik nisbati, ayrim badiiy unsurlar genezisi haqida tasavvur hosil qilish imkonini yaratadi; boshqa milliy adabiyot vakili bilan qiyoslash asosida esa adabiy aloqa va ta’sir, milliy adabiyotlar rivojidagi tipologik umumiylit kabi masalalarni o‘rganishga keng imkoniyat yaratiladi. Misol uchun Navoiy va Nizomiy "Hamsa"larini qiyosiy tahlil qilish har ikkala san`atkorning ijodiy o‘ziga xosligi, ularning dunyoqarashidagi o‘ziga xos jihatlarni yorqin tushunish va tushuntirish, Navoiy dahosini xolis baholash imkonini yaratadi.

Biografik metod badiiy asarni muallifining hayot yo‘li kontekstida o‘rganishni nazarda tutadi. Badiiy asarda ijodkor shaxsiyati akslangani bois undagi qator o‘rinlar muallif biografiyasi kontekstida yorqinroq anglashiladi. Shunga ko‘ra biografik metod asarga muallif tomonidan yuklatilgan mazmunni anglashda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, Abdulla Qahhorning "O‘g‘ri" va "Dahshat" hikoyalari o‘tmishdan bahs yuritadi, biroq ularni biografik kontekstda olinsa, adib har ikki hikoyada ham ular yaratilgan davr muammolarini badiiy idrok etishga, o‘sha davr haqidagi, davr kishilari haqidagi fikrlarini ifodalashga harakat qilgani anglashiladi. Biografik metodning qanchalik samarali bo‘lishi ko‘p jihatdan tadqiqotchi qo‘l ostidagi biografik materialga bog‘liq bo‘lib qoladi. O‘zbek adabiyotshunosligida biografik metodning yetarli darajada samara bilan qo‘llanilmay kelayotgani ayni shu narsa - biografik materialning yetarli emasligi bilan izohlanadi.

Abdulla Qahhorning izchil realistik uslubda yozilgan hikoyalarining ko‘pchiligi urush yillarida va urushdan keyingi davrda yaratilgan. Bular «Ko‘k konvert», «Qizil konvert», «Kampirlar sim qoqdi», «Xotinlar», «Asror bobo», «Beshik», «Mahalla», «Nurli cho‘qqilar» kabilardir. Albatta, ularning hammasi ham bir xil darajada badiiy yuksak emas. Ularning ichida mazmunan sayozroqlari ham, uncha pishiq ishlanmaganlari ham bor. Lekin shu bilan birga, hech shubhasiz, adabiyotimizning oltin fondidan o‘rin oladiganlari ham bor. Bu gap, ayniqsa, «Ming bir jon» va «Asror bobo» hikoyalariga taalluqlidir.

«Ming bir jon» - insonning hayotga muhabbatini, umuman, hayotning qudratini, inson irodasini ulug‘laydigan hikoya. Bu hikoya noumid odamlarning ko‘nglida umid chirog‘ini yoqadi, ularni yashash uchun kurashga chorlaydi, umr yo‘lidagi har qanday, g‘ovlarni sabot va bardosh bilan yengishga o‘rgatadi.

Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi epigrafdan boshlanadi: «*Uylar to ‘la non, och-nahorim bolam, Ariqlar to ‘la suv, tashnai zorim bolam*» (*O‘tmishdan*). Adibning barcha mashhur hikoyalari ham epigraf bilan ochilgan: «Dahshat», «Bemor», «O‘g‘ri», «Tomoshabog‘», «To‘yda aza» va boshqalar.

Hikoyadagi birinchi jumla: «*Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yaktagining yengi zulfinnga ilinib, tirsakkacha yirtildi*»⁶. Unda Qahhorga yarashmagan ko‘psozlilik bor, lekin fikrni bundan-da qisqa ifodalashning ham yo‘li yo‘q. Chunki qahramonning uyga hovliqib kirishini aytish bayon, xabar, xolos. Abdulla Qahhor yozuvchi sifatida kitobxon ishonishi uchun buni badiiy detal bilan dalillashi kerak edi. Shuning uchun ham qalami yaktagining yengi yirtiladi, jo‘nroq yozuvchi qisqa qilib, «yaktagi yirtildi» deb qo‘ya qolardi. Biroq eshikning zulfini yaktakni yirtmaydi, uning faqat bir qismini, qo‘l tegishi mumkin bo‘lgan yengini yirtishi mumkin, Lekin yozuvchi uning «tirsakkacha yirtilgani»ni ko‘rsatadi. Bu bilan Abdulla Qahhor asar syujetidan kutilajak, favqulodda hodisaning olis shabadasiga ishora qiladi. Yengi ilinib, qisqagina yirtilishi ham mumkin edi, biroq Turobjonning qalami yaktagining yengi tirsakkacha yirtildi. Demak, syujet yanada

⁶ Abdulla Qahhor. Anor: [Hikoya] //Sharq yulduzi.-1982.-№6.-B.46-48.

keskinlashishi va kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa nochor davrning ilojsiz kimsalarining oddiygina tasviri.

Yozuvchi birinchi jumlada so‘zga erk bergenini sezganday, ikkinchi jumlada gapini yig‘ishtirib oladi: «*Uning shashti qaytdi*». Eshikdan otilib kirgan (agar sekinroq kirganda yengi yirtilmasmidi) qahramonning shashti qaytdi. Chunki, hovliqib kirishi, eshik zulfinini ko‘rmagani butun nigohi xotiniga qaratilganidan edi: «*Jo ‘xori tuyayotgan xotini uning qo ‘lidagi tugunchani ko ‘rib, kelisopni kelining ustiga qo ‘ya chopdi*». Erning ehtiyotsizligi yetmaganday xotin ham ehtiyotsizlikka yo‘l qo‘ydi: shoshilib kelisopni noto‘g‘ri qo‘ydi, kelining ustiga pasangisini keltirib qo‘ymadi.

Natijada «*Keli lapanglab ag‘anadi, chala tuyulgan jo ‘xori yerga to ‘kildi*». Nochor kun kechirayotgan oila uchun (epigrafda bunga ishora bor edi) ikkita ko‘ngilsiz hodisa: qalami yaktak yengining yirtilishi, jo‘xori (ozuqa)ning yerga to‘kilishi. Biroq har ikki qahramon ham har ikki ko‘ngilsizlikka e’tibor bermadi, Chunki, ularning ko‘nglida boshqa bir *ko ‘ngilli* narsa bor edi – bu tuguncha. Yozuvchi uning ichida nima borligini aytmaydi, har kim tugunchadan o‘zicha ma’no kutadi (syujet tuguniyu yechimi ham mana shu tugunchada). Turobjon bir necha kundan beri yuzi yorishmagan xotinini quvontirmoqchi, xotini esa, hamma narsadan aziz bilgan mevasini tugunchada ko‘rmoqchi. Albatta, er «sovga»ni xotiniga shundoqqina tutqazib qo‘ya qolmaydi. «*Turobjon tugunchani orqasiga bekitib, tegishdi* (juda o‘zbekona oilaga xos detal, ehtimol, yevropali kelinlar buni tushunmay, tugunni qo‘lidan shartta tortib olar, undan kutgani chiqsa, betidan cho‘lp etib o‘pib qo‘yar; agar kutgani chiqmasa, xudo ko‘rsatmasin, uning yuziga otishi mumkin edi): «*Akajon, degin!*» - yalintirmoqchi bo‘ldi er. «*Akajon! Jo-on aka!..*» - Turobjon kutganidan ortiqroq javob berdi xotin. Er kutganiga erishsa ham bo‘sh kelmadi: «*Nima berasan!*» Xotin bisotidagi borini o‘rtaga soldi:

«Umrimning yarmini beraman!..» Umrning qolgan yarmi o‘tib bo‘lgandi, shuning uchun ham dono xotin qolganini eriga bag‘ishlashini aytdi. Er rozi bo‘ldi shekilli: «Tugunchani berdi. Xotini shu yerning o‘zida, eshik oldida o‘tirib tugunchani ochdi-da, birdan bo‘shashib ketdi va ...» Erning shashti qaytishi va xotinning bo‘shashishi – parallel kechadi.

Aslida bunday parallellar asarning boshidayoq kuzatilgandi. Turobjonning eshikdan hovliqib kirishi – xotini tugunchani ko‘rishi; er yaktagining yengi zulfinga ilinishi – xotin kelisopni kelining ustiga qo‘yishi; arning yengi tirsakkacha yirtilishi – kelining ag‘anashi va jo‘xorining to‘kilishi. Biroq so‘nggi parallel holat har ikkisining ruhiyatini, hikoyadagi xarakterini, asarning yakunini belgilovchi asos bo‘ladi⁷.

Erning shashti qaytishi – xotinning «sekin boshini ko‘tarib eriga qarashi». Endi holat, dialog va syujet rivoji parallellikka emas, ziddiyat (antiteza)ga aylanadi: «O‘z qilmishiga gerdayib turgan Turobjon» - ko‘zi jiqlqa yoshga to‘lgan xotin. Turobjonning gerdayishicha bor. U hayotdagi eng tansiq narsani xotiniga olib keldi: «Nima ekanini bildingmi? – Asalarining uyasi. Turgan- bitgani asal!» Kambag‘al xotin umrida asal yemagan, Turobjonning o‘zi ham atigi bir marta yegan: «Shokirxo‘ja qandolatchi asal qiyom qildirayotganda qozoniga ammaning jo‘jasitushib ketgandi, shu jo‘jani yalagan... Yo, qudratingdan, ishonmaydi-ya, - dedi Turobjon keltirgan matoini titkilab». Xotini esa, ishonmaganidan emas, balki tugunchadan kutgan narsasi chiqmaganidan ma'yuslandi. «Turobjon qizardi». Yozuvchi bu holni ham asoslaydi: «U bir zamon betob o‘rtog‘ini yo‘qlab eltgan tarvuzini, bemaza chiqqan bo‘lsa kerak, sigirning oxurida ko‘rib shunday xijolat bo‘lgandi».

Ikki qahramonning biri - ma'yus, biri xijolatda. Tashqarida esa «hovli yuzida aylanib yurgan oqsoq mushuk jo‘xorini iskab ko‘rdi». Bu kambag‘al oila uchun yana bir yo‘qotish, to‘kilgan jo‘xorini terib, tozalab, ishlatish mumkin, biroq mushuk tekkanini yeb bo‘ladimi?! Turobjon battar asabiylashdi: «do ‘ppisini boshidan oldi

⁷Шарафиддинов О, Абдулла Каххор.- Ёш гвардия, 1988.- В.128

va qoqmoqchi bo 'lganida ko 'zi yirtiq yengiga tushdi, yuragi achidi: endi uch-to 'rt suv yuvilgan yangigina yaktak edi!»

Shularning hammasi anorni deb bo'ldi, beixtiyor sevikli xotiniga baqirib yubordi: «*Axir, boshqorong'i bo 'l, evida bo 'l-da! – dedi do 'ppisini qoqmasdan boshiga kiyib, - anor, anor... Bir qadoq anor falon pul bo 'lsa!*» «*Xotini jo 'xorini tuyib bo 'ldi*», biroq «*erining boshqorongi bo 'l, evida bo 'l-da*» so'zi alam qilib ketdi: «*Havasga anor yeydi deysiz, shekilli...*» Yozuvchi maqsadini shu o'rindayoq anglatib ulgurdi: yo'qchilik tufayli inoq oila darz ketdi. Turobjon o'zining holini anglatib, «*G'alatimisan o 'zing?*» demoqchi edi. Yozuvchi 30-yillarning adabiy farzandi sifatida Turobjonnning javobida sinfiy ruhni kuchaytiradi. «*Bilaman.. Axir,nima qilay? Xo 'jaynimni o 'ldirib pulini olaymi, o 'zimni hindiga garovga qo 'yaymi?*» Ovqat pishdi hamki, er-xotinning arazi tugamadi. «*Turobjon ikki kosa ichdi, xotini esa hanuz bir kosani yarimlatolmas edi*». Yozuvchi bu so'zlar bilan ham kifoyalanmay, yanada keskinlikni oshirmoqchi bo'ldi: «*Uning (xotininining) imillashini ko 'rib, Turobjonning ko 'ziga negadir oqsoq mushuk ko 'rindi. Mushuk yirtilgan yengini esiga tushirdi, avzoyi buzildi*».

Xotini buni sezib, ichkisi kelmasa ham kosani bo'shatdi. Ammo «*darhol tomorqasiga o 'tib ko 'zlari qizargan, chakka tomirlari chiqqan holda qaytdi*».

Yozuvchi «*xotin qayt qildi*» demasdan uni shu holda ko'rsatadi. Biroq Turobjon battar tutoqdi, endi yozuvchi bu safar erning jahl qilishiga bahona topib berolmay qoldi: «*Hali tug 'ilmagan bolani yer yutkur deding-a!*»

Holbo'ki, xotin bunday demagandi. U tug 'ilmagan bolani emas, o'zining homiladorlik holatidan to'yib «*yer yutkur*» degan edi. Endi Turobjon kuchayib borardi. Erning avzoyini ko'rgan xotin tilini tiydi, biroq xotin kishi emasmi, «*qozonga suv quyayotib, eshitilar-eshitilmas* (ya'ni, o'ziga o'zi) dedi: *O 'sha asalning puliga anor ham berar edi*». Bu gap erni battar tajang qiladi, u hatto urib yuborishi mumkin edi, biroq yozuvchi mushtning vazifasini so'zga topshiradi: «*Berar edi. Anor olmay asal oldim... Ajab qildim, jigarlarining ezilib ketsin!*» So'nggi iboraga adib anchagina badiiy yuk yuklaydi. Ayol kishi, ayniqsa, boshqorong'i ayol

uchun bundan ortiq haqorat bo‘lmasligini hikoya davomida ikki bor eslatadi. Hikoyada asosiy estetik vazifani xuddi dramadagi kabi *harakat va nutq* bajaradi.

Struktural talqinda bosh qahramon – Turobjon ham, uning xotini ham emas. *Anor!* Asar konfliktining bosh sababi ham, syujetdagi tugun ham, yechim ham anorga bog‘liq. Bu faqat sarlavhada aks etgani uchun emas, balki hikoya syujeti ham «*anor*» (anor deb tasavvur qilingan narsa)ning asar voqeasiga kirishi bilan boshlanadi va *anor* (haqiqiy anor)ning xonadonga kirib kelishi bilan yakunlanadi. Mana shu ikki *anor*: yolg‘on anor va rost anor o‘rtasidagi turmush; ikki qutb o‘rtasidagi hayot: yolg‘on (hayot) va rost (o‘lim) asarning mohiyatini belgilaydi.

Anor – muloqot vositasi, kommunikativ birlik. U, asosan, qaramaqarshiliklarni birlashtiradi: kun va tun, er va xotin, sevgi va alam, er mushti va xotin ko‘zyoshisi. Demak, u muvozanatga ham olib keladi. Xotin anorni kutib yashaydi, er anor olib kelishini o‘ylab. Anor mojarosi oilani birlashtirishi ham mumkin edi, lekin uning darz ketishiga ham mana shu anor sabab bo‘ldi. Bundan tashqari yozuvchi yana anorga qanchadan-qancha ma’noviy yuk ortgan. Anor – to‘qlik belgisi (Mullajon qozining bog‘i – bog‘ emas, naq anorzor). Anor – yorug‘lik timsoli, uni o‘ylaganda ayolning ko‘ngli yorishadi, xuddi mushakdan yorishgan tunday. Anor – vaqt timsoli, voqealarning pishig‘ida kechadi... Hikoyadagi vaqt birligi harakat va makondan ham aniqroq ishlangan. Turobjonning uyga kirib kelishi chog‘ida xotin kechki ovqatga unnamoqchi edi (jo‘xori tuyib, suyuq osh qilmoqchi). Qorongi hali tushmagan edi, yaktakning yengi yirtilishi qorong‘ulikda ko‘rmay qolishlikdan emas, bemavrud hovliqishdan... va hikoya yakunlanganda hali tong otmagan edi. Voqealarning taxminan 10-12 soat ichida kechadi. Ixchamgina hikoya bag‘rida bu yarim sutkaga yaqin vaqt imillab o‘tadi, xuddi *oqsoq mushuk* singari. Darvoqe, mushuk nega oqsoq degan savolni ayrim sinchkov munaqqidlar o‘rtaga qo‘yishgan, lekin uning javobida esa shunchaki detal yoki punktir sifatida keyingi voqealarning xunuk rivojiga timsolday qarashgan. Holbuki, oqsoq mushuk – vaqt timsoli. U sekin o‘tadi. Er ikki kosa ovqatni paqqos tushriganda xotin hali kosani yarimlatmagandi. Buni ko‘rgan «*Turobjonning ko‘ziga negadir oqsoq mushuk ko‘rindi. Mushuk yirtilgan yengini esiga tushirdi, avzoyi buzildi*», xayoliga sudralib

kelgan oqsoq mushuk emas, xotinning imillashi g‘ashini keltiradi: «*Uning avzoyidan «esiz, jo ‘xori, qatiq, o ‘tin» degan ma’noni anglab xotin, ko ‘ngli tortmasligiga qaramasdan, kosani bo ‘shatdi*». Demak, vaqt birligi – oqsoq mushuk xotinga kosani bo‘shatishga yordam beradi. Oqsoq mushuk asarda boshqa ko‘rinmaydi.

Hikoyaning finali - Turobjonning «katta bir tugunni orqalab» uyga kirib kelishi. Undan keyingi so‘zlar («*Qayoqqa boardingiz? - dedi entikib. – Nima qildingiz? Turobjon javob bermadi. Uning vujudi titrar edi*») go‘yoki ortiqchaday, Chexovning «miltig‘i» otilgandan keyingi holatday. Novella uchun muhimi – portlash, miltiqning otilishi. Ayni shu paytdayoq asardagi syujet chizig‘i tugagan, yozuvchining keyingi so‘zlari go‘yo kitobxonga yordam bermoqchi bo‘lib aytilganday, uning o‘g‘irlik qilganini eslatmoqchi bo‘lganday edi.

Umuman olganda, yuqoridagi hikoyalar davrni o‘zida mujassam etganligi boisidan biografik metod namunalari, deya olamiz.

Ijodiy-genetik metod biografik metodga yaqin va u bilan birlikda qo‘llanib, badiiy asarning ijodiy tarixini o‘rganishni maqsad qiladi. Bu metod adabiyotshunosga hayot materialining badiiy obrazga aylanish jarayoni, badiiy matnning sayqallanish yo‘lini kuzatish imkonini beradi. Mazkur metod tadqiqotchining asar qoralamalari, uning turli nashr variantlari, tarixiy hujjatlar va h.ni chuqur o‘rganishini, konkret faktlar asosida asarning yaratilish tarixi va omillarini ochib berishini taqozo etadi. Adabiyotshunoslismizda ijodiy-genetik yondashuv samara bilan qo‘llangan tadqiqotlardan biri sifatida R.Qo‘chqorning A.Qahhor romanlarining ijodiy tarixi haqidagi ilmiy ishini ko‘rsatish mumkin.

Yuqoridagi metodlarning bari asarning tashqi aloqalarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ularning bari tarixiylik tamoyiliga tayanadi. Shuni ham ta’kidlash joizki, konkret badiiy asar tahlilida ular qorishiq holda qo‘llanadi, ya’ni, tahlilda ulardan bitta-ikkiasi yetakchi bo‘lgani holda, qolganlari ularni to‘ldiradi. Ikkinchisi tomondan, kontekstual tahlil jarayonida adabiyotshunos immanent tahlil metodlaridan ham o‘rni bilan foydalanadiki, bu uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Immanent tahlil metodlari sifatida struktural, stilistik va semiotik metodlarni

ko‘rsatish mumkin. Struktural metod badiiy asar qismlari va ularning o‘zaro aloqalarini o‘rganadi. Bu o‘rinda tadqiqotchi matnning tashkillanishini yoki badiiy voqelikning tashkilanishini diqqat markaziga qo‘yishi mumkin bo‘ladi. Stilistik tahlil matnning uslubiy o‘ziga xosligini, semiotik tahlil esa badiiy asardagi lisoniy belgilarning ma’no qirralarini o‘rganishga qaratiladi.

Bulardan tashqari, badiiy asarni, aniqrog‘i, uning ijtimoiy mavjudligini o‘rganishda konkret sotsiologik tadqiqot metodlari, shuningdek, o‘sha asar haqida yaratilgan tanqidiy asarlarni o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Hikoya janrida biografigik metodning qo‘llanilishi asar jozibasini va muhitini yanada teranroq tasavvurlarda aks ettiradi.

II BOB. Ta’lim bosqichlarida Abdulla Qahhor hikoyalarini o‘rganish muammolari

2.1 “O‘g‘ri” hikoyasini o‘rganishda interfaol metodlar (“Klaster”, “Aqliy hujum”, “Portret” usuli)ni qo‘llash

Adabiy ta’limda Abdulla Qahhorning ijodini o‘rganish masalasiga bag‘ishlangan uslubiy qo‘llanmalardan biri – bu Sa’dulla Ismatovning “Maktabda Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini o‘rganish”³ uslubiy qo‘llanmasidir. O‘z davri adabiyot o‘qituvchilari uchun namunali sanalgan ushbu uslubiy qo‘llanmada Abdulla Qahhor ijodini o‘rganishning ko‘p qirralari ochib berilgan Muallif Abdulla Qahhor ijodini sakkiz yillik maktablarda o‘rganish, 5-sinfda “O‘g‘ri” hikoyasini o‘rganish, 7-sinfda Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini o‘rganish, 10-sinfda Abdulla Qahhor hayoti va ijodini o‘rganish, Abdulla Qahhor hikoyalarini o‘rganish (1930 yillardagi ijodi), Abdulla Qahhorning Ulug‘ Vatan urushidan keyingi yillardagi ijodini o‘rganish, “Sinchalak” qissasini o‘rganish, A.Qahhor ijodi bo‘yicha yakunlovchi suhbat, A.Qahhor ijodi bo‘yicha o‘tkaziladigan yozma ishlar, A.Qahhor ijodini sinfdan tashqari o‘rganish yo‘llari, bibliografiya ruknlari ostida o‘rganishning samarador metodlari tizimini tavsiya etadi. uslubiy qo‘llanmaning yutuqlari qatorida adib asarlarini o‘rganishga davr nuqtai nazaridan yondashilganini, tavsiya etilayotgan uslubiy tavsiyalar hukmon mafkura talablariga to‘la bo‘ysundirilgani kabi qusurlarni aytib o‘tish joizdir. Shunday bo‘lsa-da, bunday uslubiy qo‘llanmalar Abdulla Qahhor va shu kabi ijodkorlar asarlarini adabiy ta’limda o‘rganishning mazmunini boytitishga, metodik tajribalar tadqiq etilib, ommalashtirilishiga; dars o‘tish metod va usullari ko‘laming kengayib, takomillashiga, albatta, o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazgan.

Subutoy Dolimov, Hamidulla Ubaydullaev, Qudrat Ahmedovlarning ham muallifligida yaratilgan “Adabiyot o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi¹ – universitet va institutlarning filologiya fakulteti o‘qituvchi va talabalar uchun-

³ Исматов С. Мактабда Абдулла Қаххорнинг ҳаёти ва ижодини ўрганиш // иккинчи нашри. Адабиёт ўқитувчилари учун кўлланма. – Т: “Ўқитувчи”. 1978.

¹ Долимов С, Убайдуллаев Х, Ахмедов К. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: “Ўқитувчи”. 1967.400-403-6.

adabiy ta’lim mazmunini boyitishga, yangi metod va usullar tizimini ommalashtirishga, adabiy ta’lim maqsad va vazifalarining ro‘yobini amalga oshirishda juda muhim qo‘llanma sifatida maydonga kelgan. Unda Abdulla Qahhor ijodini, xususan, “Asror bobo”, “Sinchalak” hikoya va qissasini o‘rganish yuzasidan uslubiy tavsiyalar qayd etilgan. O‘z darida bu metodik kitob adabiyot o‘qituvchilarining yaqin maslahatgo‘yi bo‘lgan, ta’lim jarayonida o‘quv qo‘llanma sifatida amaliy keng foydalanilgan. Hozirda adabiy ta’lim taraqqiyotini tanqidiy tadqiq qilish, uning rivojlanish bosqichlarini o‘rganish uchun ham ushbu qo‘llanmaga murojaat qilinadi, tanqidiy o‘rganiladi.

Ma’lumki, Abdulla Qahhorning juda ko‘p ibratomuz so‘zлari, aytgan “qayroqi” fikrlari, “tesha tegmagan” o‘xshatishlari ilm ahli, kitobxonlar orasida, keng jamoatchilik nutqida iboralarga, hikmatli so‘zлar darajasiga aylanib ulgurgan. Odatda, Abdulla Qahhor ijodi yuzasidan o‘quvchilar badiiy tafakkuri o‘stirilar ekan, adabiyot o‘qituvchi dars davomida, hech bo‘lmaganda, 2 yoki 3 marotaba Abdulla Qahhorning ana shunday hikmatlariga murojaat qiladi, o‘quvchilarga kuchli hissiy ta’sir o‘tkazishga intiladi. Masalan, adabiyot va uning inson hayotida tutgan o‘rni haqida gap ketganda Abdulla Qahhorning “Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o‘tin yorishga sarflamaslik kerak” degan hikmatini, adabiyot taqdiri, yozuvchi mehnati haqida gap ketganda uning: Adabiyotga o‘g‘ri mushukka o‘xshab tuynukdan oshib tushadiganlar ham bor; Adabiyot ko‘ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg‘usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o‘xshaydi – meva tugmaydi. Ko‘ngil rozi bo‘lgan asargina kitobxonning ko‘ngliga yo‘l topadi, kitobxonlarning ko‘nglida meva tugadi; Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi; talant va mahorat haqida so‘z ketganda: Semiz kitobning yuragi yaxshi tepmaydi; Yozuvchining mahorati shundaki. Butun bahorni atigi chigitdek keladigan g‘o‘ra ichiga qamab bera oladi; Palag‘da tuxumga murch sepib bergen bilan uni yeb bo‘lmaydi; tanqid va tanqidchilik to‘g‘risida bilim berilganda: Asr to‘g‘risida eng to‘g‘ri, xolis yozilgan taqriz kutubxonaning daftarida bo‘ladi; Birovning ashulasini aytgan tanqidchi o‘smanydi; uzoqdan otilgan tosh qattiq tegadi; Uy oladigan kishi uyni minorada turib

ko‘rmaydi; Sukut – tanqidning bir turi kabi juda ko‘plab pandlari, qalb so‘zлari, yozuvchi ijodiy maktabining xulosalari har qanda kitobxonni, o‘quvchini o‘z ta’sir domiga tortadi, o‘ylantiradi. Kitobxonlarga, o‘quvchilarga, adabiyot muallimlariga adibning bunday hikmatlaridan ortiqcha izlanishlarsiz bahra olishlari uchun Asror Samad mehnati bilan chop etilgan “Abdulla Qahhor hikmatlari”¹ kitobi ham ma’naviy ozuqa, ham metodik qo‘llanma sifatiga egadir. Kitobning ixcham shakli, hikmatlarning ruknlar ostida ifodalanishi kitobxonga ham, adabiyot muallimi yoki o‘quvchilarga bir qancha qulayliklar tug‘diradi.

Qahhor ijodini o‘rganish ko‘lamini kengaytirish, uning asarlarini o‘rganishga yangilangan pedagogik tafakkur asosida yondashish, adib asarlari vositasida o‘quvchilarda ma’naviy-mafkuraviy immunitetlarni yanada shakllantirish adabiy ta’lim oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Biz ishimizning keyingi bosqichlarida adabiy ta’lim jarayonida Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish yuzasidan to‘planayotgan yangi metod va usullar tavsifni keltirishga hamda adib ijodini o‘rganish yuzasidan bizning yangicha yondashuvlarimizga alohida e’tiborimizni qaratamiz.

Umumiy o‘rta ta’lim mакtablarining o‘quvchilari Abdulla Qahhor hikoyalari bilan 6-7-sinflarda tanishadilar. O‘quv rejasiga muvofiq 6-sinfda “Bemor” hikoyasini o‘rganish uchun 2soat, 7-sinfda “O‘g‘ri” va “Dahshat” hikoyalarini o‘rganish uchun 3 soat vaqt ajratilgan.

Istiqlol sharofati bilan ta’lim jarayonida tub burilishlar, ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yangicha pedagogik tafakkur, o‘qish va o‘rgatishga bo‘lgan munosabatlarning yuksalishi, ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining kirib kelishi, noan’anaviy, innovatsion, interfaol metod va usullardan, pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko‘laming kengayib borayotgani, avvalo, o‘qituvchilardan o‘z ustida ko‘proq izlanish, o‘rganishni; bilimlarini muttasil oshirib borish zaruratini; yangi axborot vositalari, kompyuter texnologiyasini mukammal o‘rganishni; xorijiy tillarni o‘zlashtirib, dars jaryonida

¹ Асрор Самад. Абдулла Қаххор ҳикматлари. – Т: “Ўзбекистон”. 1990.

fanlararo, ta’lim jarayonlariaro aloqani, integratsiyani, takomillashtirishni davriy zarurat sifatida taqozo etmoqda. Bu narsa adabiy ta’lim jarayoniga, xususan, Abdulla Qahhor asarlarini o‘rganishga ham o‘zining ta’sirini ko‘rsatadi.

Biz metodist olimlarimizning, ilg‘or pedagoglarimizning Abdulla Qahhor ijodini, uning hikoya, qissa va romanlarini o‘rganish yuzasidan ishlab chiqqan uslubiy tavsiyalar tizimini, avvalo, e’tirof etgan holda, ularning mehnatlarini qadrlab, pedagogik jaryonlarda keng foydalanilayotganini ta’kidlagan holda, o‘z fikr-mulohazalarimizni, adib asarlarini o‘rganishga yangicha yondashuvlarimizni bildirmoqchimiz, amaliyotga tavsiya etmoqchimiz.

7-sinfda Abdulla Qahhorning "O'g'ri" va “Dahshat” hikoyalarini o‘rganish uchun 3 soat vaqt ajratilgan. O‘qituvchi darsning birinchi soatida har ikkala hikoya matnini o‘quvchilarga tanishtirishi, avval o‘zi keyin o‘quvchilarga o‘qitishi – hikoyalar syujetini o‘quvchilar obdon o‘zlashtirishlariga erishishi maqsadga muvofiqdir. Keyingi 2 soat (1 soatdan) hikoya tahliliga, matn ustida ishlashga bag‘ishlanadi.

"O‘g‘ri" hikoyasini tekstual tahlil qilish ko‘proq samara beradi. Negaki, hajman mo‘jaz bu hikoyada badiiy maqsadga xizmat qilmaydigan, personajlar tabiatini ochishga qaratilmagan bironta so‘z ham uchramaydi. Binobarin, asarda nomuhim, ikkinchi darajali badiiy unsurning o‘zi yo‘q. Shu bois, xuddi lirik asarlarni tahlil qilgandek, mazkur hikoyani ham tekstual usulda o‘rganish samarali bo‘ladi.

“O‘g‘ri” hikoyasi matni ustida ishlashni quyidagicha tashkil qilish mumkin. Darsning maqsadi Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi asosida o‘quvchilarda o‘zgalar baxtsizligi evaziga kun ko‘rvuchi manfaatparast kimsalarga nafrat, zulmga isyon hissini shakllantirish, asardagi obrazlarni tahlil qilish, yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati va istiqlol mohiyatini anglatishdan iborat.

Darsga Cho’lponning "Ko‘ngil" she’ridan ushbu band shior qilib olindi:

...Na faryoding, na doding bor,

Nechun sen buncha sustlashding?

Haqorat dilni og’ritmas,

Tubanlik mangu ketmasmi?

...Tiriksen, o'limgansen,

Sen-da odam, sen-da insonsen..."

O'qituvchi darsni boshlashdan avval sinfdagi o'quvchilarni guruhlarga ajratadi.

Har bir guruh o'z vazifalariga ko'ra shior tanlaydi. Masalan, quyidagicha:

Insonparvarlar guruhi: "Odamlaming eng aziz va hurmatlilari qayg'u, hasrat-u tashvishli damlarda bilinur, go'yoki bu tashvishlar ular (hurmatli kishilar) uchun tug'ishgan opa-singildek yaqindir."(Zamaxshariy).

"Yosh aktyorlar" guruhi: "Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas " (Abdulla Qahhor).

Izquvarlar guruhi: "*Faqat insonni sevish orqaligina adolatparvar bo'lish mumkin*"(I.Kant).

"Yosh rasomlar" guruhi: "*Odamlar, insonparvar bo'ling! Bu sizning birinchi burchingiz*" (J J. Russo).

Munaqqidlar guruhi: "*Ijod bog'iga bolta emas, tokqaychi ko'tarib kirish kerak*"(Ozod Sharafiddinov).

"Til bilimdonlari" guruhi: "*So'z - hikmat, so'z - qurol*"(Maqol).

Dars skarabey interfaol usulda olib boriladi. Bu usul o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiqiy aloqadorlik va xotirani rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

O'qituvchi bugungi dars mavzusi o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, mashhur hikoyanavis, qisqa so'zda ko'p ma'no ifodalash mahorati egasi Abdulla Qahhor va uning "O'g'ri" hikoyasi haqida ekanligini ma'lum qiladi va dars davomida bilimlarni baholash tartibi bilan tanishtiradi. Har bir to'g'ri, mantiqli javob uchun rag'bat kartochkasi berilishini aytadi. Ekspert guruhi javoblarni kuzatib borib, eng yaxshi ishtirokchi va eng faol guruhni aniqlashi, g'olib guruh faxrli "Qahhorshunoslar" nomiga ega bo'lishini e'lon qiladi.

O'quvchilar hikoyaga tarbiyaviy, ilmiy jihatdan yondoshmoqlari, san'atkor sifatida o'zlarining mustaqil fikrlarini bildirmoqlari lozimligi uqtirildi. Guruhlarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

1-topshiriq. Yozuvchi hayotiga oid ma'lumotlarni to'ldiring.

1. Abdulla Qahhor...-----
 2. 1925-yil...-----
 3. 25-may...-----
 4. ...gazetasida ishladi.
 - 5 ...eski mактабда o'qidi.
 6. Ko'chgan qishloqlari:---
 7. 17-sentyabr...-----
 8. Oqqa'rg'onda...-----
 9. 1930-yilda....-
 10. ...o'qituvchilartayyorlash kursida o'qidi.
 11. 1934-yiIi-----
 12. "Qo'shchinor chiroqlari"-----
 - 13.----oybitigida,gazetalarida xabarları bosildi.
 14. Ijodi-----
 15. 1958-yilda-----
 16. Shuhrat keltirgan roman---
 17. 1965-yilda-----
 18. "Ayajonlarim" komediyasi---
 19. Komediya... 1962-yilda-----
 - 20."Muhabbat" qissasi-----
- 2-topshiriq.** Quyidagi gaplarni kim aytganligini aniqlang, munosabat bildiring.
- 1.Yig'lama, yig'lama, deyman! Ho'kizing oqposhsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi.
 2. - Endi bizga qiyin bo'ldi-da... Peshonam sho'r bo'lmasa, ...
 3. - Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho'kiz edi?
 4. - Ey, yosh bolamisiz? Nega yig'laysiz? Kap-katta odam...
 5. - Ha, ho'kizni uylariga eltib berishsinmi? Axir, borilsin, arz qilinsin-da.
 6. - Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.
 7. Birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi.....Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi.

3-topshiriq. "O'g'ri" hikoyasidagi quyidagi obrazlaiga qisqacha tavsif bering.

Masalan:

1. *Qobil bobo*: Yoshi ulug', kampiri bilan zo'rg'a kun kechiradi. Ho'kizining yo'qolganiga juda qayg'uradi, uni topish niyatida mansabdorlarga pora berib, bor-budidan ayriladi.

2. *Kampir*:

3. *Ellikboshi*:

4 *Amin*: ,

5. *Tilmoch*:

6. *Pristav*:

7. *Egamberdi*:

8. *Odamlar*:

4-topshiriq. "O'g'ri" hikoyasidagi berilgan poralarni aniqlang. Masalan:

1. Ellikboshi: mingboshiga 700 bog' beda, bir toy paxta bergen.

2. Azaimxonga:


3. Tilmochga:

4. Pristavga:

5. Aminga:

7. Egamberdiga:

5-topshiriq. Boshqotirma. Doiralar ichiga Abdulla Qahhor asarlari nomlarini yozing. O'quvchilar adib asarlarini dora ichiga joylashtirish barobarida, asrning qaysi janrga mansubligini ham aytib beradilar. Masalan, "O'g'ri" – hikoya, "Sarob" – roman ...



Navbatdagi topshiriq — qisqa vaqt ichida har bir guruh o'z vazifasidan kelib chiqib, matn ustida ishslash.

Bunda o'quvchilarning asarni tahlil qilib, matndagi tagma'noni ilg'ashlari, badiiy haqiqatlarni ko'ra olish salohiyatlari alohida rag'batlantirildi. Matnni idrok etish uchun “Aqliy hujum” usulidan foydalanib, ushbu savollar beriladi:

1. Kampirning dodlashiga nega odamlar tez to'planishdi?
2. Nega chol dag'-dag' titraydi? Sovuqdanmi?
3. Amin hamisha ham o'zini shunday tutarmikin?
4. Nega bu hikoyaga yozuvchi "Otning o'limi - itning bayrami" maqolini epigraf qilib olgan?
5. Asosiy qahramonning Qobil bobo deb atalishida qanday ma'no bor?
6. Hikoya nima uchun "O'g'ri" deb nomlangan?
7. O'g'ri muallif nazarida kim?
8. Qobil boboning uyiga o'xshagan uylarni ko'rganmisiz?
9. Voqeа qaysi faslda bo'lib o'tgan?
10. Hozirgi kunda bunday voqeа sodir bo'lishi mumkinmi? Agar bo'lsa, nima chora ko'rildi?

O'quvchilar diqqati hikoyada birgina tovushdan iborat "O!.." gapi tashiydigan serqirra ma'noga, u ifodalaydigan holatlar ekstratsiyasiga qaratilishi lozim. Bu

tovush-gap zamirida kampirning qanday kechinmalari borikin? Kitobxonlar kampirning ayni paytdagi holatini to'liq his qilishsa, uning kechinmayu sezimlarini ilg'ab olishsa, estetik maqsadga muvofiq bo'ladi. So'ng hikmatga o'xshab ketadigan: "*Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin*" jumlasiga kitobxonlar e'tibori tortilgani ma'qul.

Kambag'al odamda yuksak orzular bo'lmaydi. Chunki qashshoqlik atalmish bedavo dard insonni, avvalo, baland orzulardan mahrum etadi. Havas - imkoniyatdan tug'iladigan ruhiy hosila. Shu bois dehqonning uyi betakror me'moriy obida yoki kuyib ketsa kishining joni achiydigan koshona emas, shunchaki "...bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish" bilan tiklanadigan kulba. Binobarin, uning kuyib ketishi uy egasi uchun juda katta yo'qotish emas va unchalar qiynalmay, yangisini tiklab olish mumkin. Kambag'alda uyi kuyganda yonib ketadigan boylik ham yo'qki, unga achinsa.

Tahlilchi syujet rivojidagi har bir nuqtada kampirning reaktsiyasi qanday bo'lganiga diqqat qilishi kerak: ho'kizning yo'qolganini bilgan kampir eng avval nima qildi? Hamma ayollarning qurolini ishga soldi, ya'ni dodldadi. Boshqacha bo'lishi mumkinmidi? Uning o'rnida Qobil bobo nima qilgan bo'lardi? Bu haqda jiddiy o'ylab ko'rish har bir timsolning o'ziga xosligini tushunish imkonini beradi.

Matn ustida ishlashdan avval o'qituvchi quyidagilarni ta'kidladi: "*Abdulla Qahhor: "Biron hodisaning yaxshi yoki yomon ekanligini bildirish bilan unga nisbatan nafrat yoki muhabbat hissi tug'dirish orasida juda katta farq bor. Bilgan kishi bilib qo'ya berishi mumkin, lekin his qilgan kishi his qilib qo'ya bermaydi", - der edi. Shunday ekan, bo'layotgan voqealarни his qilib, qahramonlaming o'rniga o'zingizni qo'yib ko'rgan holda fikrlang, tahlil qiling".*

Asar ustida ishlashda har bir guruh o'z zimmasiga olgan vazifalari yuzasidan quyidagilarni havola etadi:

“Yosh aktyorlar” guruhi:

“O'g'ri” hikoyasi asosida kichik sahma ko'rinchini namoyish etadilar. Asar voqealarida o'quvchilarning (aktyor sifatida) ishtiroki, hikoya mazmunini o'zlashtirilishiga amaliy yordam beradi.

Kampir: O! ... Voydod, voydood! (*Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan yugurib chiqadi. Odamlar yig 'iladi*)

Odamlar: Voy bechoralar, ho'kiziga o'g'ri tushibdi...., Endi qanday kun kechirishadi?

(*Qobil bobo og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko 'zлari jovdiraydi, hammaga qaraydi, lekin hech kimni ko'r-maydi*)

Xotinlar: Hmm... iloyo o'g'irlagan qo'ling sinsin!.... Topgan puling teshib chiqsin, o'zingga buyurmasin!. Qariyalarning uvoli tutsin!

Kimdir: Nahotki shu kichkina teshikdan ho'kiz siqqan bo'lsa.....

Aql bovar qilmaydi-ku!

Ellikboshi (*Hamma yojni tekshirib, pang tovush bilan*): Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi. *Qobil bobo* (*sevinganidan xo'rлиgi kelib, yig'lab*): Xudo xayr bersin... Ola ho'kiz edi...

Odamlar: O'g'ri devorni yarim kechada teshgan bo'lsa kerak... Poytesha o'tkir bo'ladi yoki lo'm bilan urib teshgan. Ho'kizni uzoqroqdagi bozorda pullasa kerak.... Balki allaqachon so'yib yuborgandir...

Ellikboshi (*ketidan ergashib, yig'layotgan boboga*): Yig'lama, yig'lama, deyman! Ho'kizing oq poshsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi.


Kampir: Ilohim, umringizdan baraka toping...

Qobil bobo: Sizni xudoning p'zi yarlaqasin! Dunyo turguncha turing! (*hamyonidan pul chiqarib beradi*)

Ellikboshi: Bu haqda beto'xtov aminga xabar qilaman. (Parda yopiladi)

“Yosh rassomlar” guruhi:

“O'g'ri” hikoyasi qahramonlari aks etgan rasmlarni qo'lda chizish va izohlash. “Portret” usulida qahramon ruhiyatini ochib berish mumkin. Guruh a'zolarining asar voqealarini rasmlar orqali qayta jonlantirishlari, izoh berishlari o'quvchilarining asarni puxta o'zlashtirishlariga amaliy yordam beradi. Ushbu jadvalda voqealar rivojini joylashtirish mumkin:



- orqa tomononi teshilgan og'ilxona rasmi;
- Qobil bobo va kampirning ayanch holat tasviri;
- Qobil bobo va ellikboshi tasviri;
- Qobil bobo va amin tasviri;
- Qobil bobo va pristav tasviri;
- Pora uchun berilgan: pul, tuxum, yarim qop jiyda, jo'xori, ikki kalava ip, uchta tovuq, kulangir tasvirlari.

“Til bilimdonlari” guruhi:

Guruh a’zolari hikoyadagi: , *Otning o’limi, itning bayrami, dehqonning uyi kuysa kuysin, ho’kizi yo’qolmasin, qozonni suvga tashlash, uyi xatga tushdi, tekinga mushuk oftobga chiqmaydi, pulning yuziga qarash aqldan emas, fuqaroning arzga borishi arbobning izzati, tepa sochi tikka bo’ldi, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan, o’ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan, “kichkinagina shart” kabi maqol, ibora hamda dialoglardagi o’zaro muomala jarayonlarini tadqiq qiladilar, sharhlaydilar, munosabat bildiradilar.*


Munaqqidlar guruhi:

Guruh a’zolaridan yozuvchining uslubiga, badiiy mahoratiga tavsif berish, adibning so‘zga xasis, fikrga saxiy ekaniga urg‘u berishlari so‘raladi.

Izquvarlar guruhi:

Guruh a’zolari o‘g‘rining izidan tushadilar. Voqealarni taftish qiladilar. Qobil boboning o‘sha davr amaldorlari qoshida kamsitilishi va bor-budidan ajralib, qarzga botishi, hatto hali olinmagan hosili ham Egamberdi paxtafurushga berilib, xonavayron bo‘lishining sabablarini topishga, haqiqiy o‘g‘rilarni qo‘lga tushirishga

harakat qiladilar. Izquvarlar guruhi a'zolarining yakuniy xulosasi – tekshirishlarining yechimi asar g'oyasining ochilishiga, darsdan ko'zlangan maqsadning bo'y ko'rsatishigi jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu "Zinama-zina" usulida tahlil qilinadi:



O'qituvchi guruh a'zolarini qo'llab-quvvatlab turadi, konseptual savol va topshiriqlar berib, ishning samarali yakun topishiga yordam ko'rsatadi.

Insonparvarlar guruhi:

Guruh a'zolaridan Qobil bobo va u kabi kishilarning bunday ayanch holati sabablari, inson qadri har narsadan ulug' ekani, bugungi nurafshon kunlarda inson manfaatlari yo'lida qilinayotgan ezgu ishlar, ayniqsa, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor maqom tutganligi, bugun o'g'ri bo'lgan emas, to'g'ri bo'lgan odam saodatga erishishi haqida yorqin fikrlar bildirishlari so'raladi.

Ekspert guruhi guruhlар bergen javoblarni o'qituvchi hamkorligida sarhisob qiladi, guruhlар qo'lga kiritgan rag'bat kartochkalarini hisoblaydi, shu tariqa eng faol guruh aniqlanadi. O'qituvchi darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni ma'naviy rag'batlantiradi, ularni ilm olishga, kasb-hunar egallashga, xalq xizmatida bo'lishga chorlaydi, bilimlar reyting asosida belgilanib rasmiylashtiriladi.

2.2 “Dahshat” hikoyasini o‘rganishda kreativ yondoshuv

Hozirda pedagogik texnologiyalarning boshqa yo’nalishlari ham mavjud bo’lib, ulardan asosiyлари empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv pedagogik texnologiyalardan iborat. Bu yo’nalishlarning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

Empirik-(tajriba) sezgi a’zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e’tibor sezgi a’zolarining tabiiy rivojlanganlik imkonyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv-(bilishga oid) atrofdagi olam to’g’risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqlash (tarkibiy qismlarga ajratib o’rganish) tafakkurini shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik-(haqiqatni topish) yo’naltiriuvchi savollar berish yo’li bilan ta’lim berish tizimi. Topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o’quv-izlanish ta’lim metodi. Optimallashgan (ko’p variantlardan eng ma’qulini, mosini, muvofig’ini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi.

Kreativ-(ijodiy) tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega bo’lib, o’quvchilarda maqsadga yo’naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

Inverison-(almashtirish) axborotlarni turli tomondan o’rganish, o’rnini almashtirish xususiyatiga ega bo’lib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi.

Integrativ-(yaxlitlash) axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko’p kichik qismlarning o’zaro ajralmas bog’liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to’g’ri xulosani aniqlash.

Adaptiv-(moslashtirish) axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonini o’rganish hamda o’rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

Inklyuziv-(tenglik) o’qituvchi bilan o’quvchining o’zaro munosabatlarida tenglik asosida ta’lim tarbiya jarayonini tashkil qilish. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan o’quvchilarning sog’lom o’quvchilar bilan birgalikda o’qishini tashkil qilish pedagogik texnologiyasi.


Pedagogik texnologiyaning asosiy yo'nalishlari hozirgi an'anaviy ta'limdi turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda rivojlanib bormoqda. Turli fan o'qituvchilari tomonidan har bir o'quv fanining asosiy xususiyati, mazmunining tarkibi, amaliy, nazariy qismlarining nisbatiga muvofiq ravishda eng qulay pedagogik texnologiyalarning empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv va boshqa yo'nalishlarini to'g'ri tanlash jiddiy ahamiyatga ega.

Abdulla Qahhor ulug' rus yozuvchisi A.Chexovning "Qisqalik - iste'dod singlisi" degan iborasini juda e'zozlardilar. Suhbatlarning birida u "Bemor" hikoyasining birinchi jumlasini qanday yozganini, 30 da yaqin varaqni qoralab, nihoyat eng qisqa, eng aniq ifoda topganini aytib bergen edi: "Sotvoldining xotini og'rib qoldi". Ustozning "Mahalla" hikoyasiga mening to'rt satr she'rim epigraf qilib olinganidan hali ham boshim osmonga yetadi" misralari kimning qalamiga mansubligini aniqlashni berdik.

Kuzatganimiz, bir qator adabiyot o'qituvchilarining Abdulla Qahhor ijodini, uning "O'g'ri", "Dahshat", "Bemor" hikoyalarini o'rganish yuzasidan tavsiya etayotgan metod va usullari rang-barangligi, keng qamrovlligi bilan "yarq" etib e'tiborimizni o'ziga jalb qilsa-da, shakliy ustunlikning yuqoriligi, asosiy ob'ekt – asar matnidan uzoqlashish holatining yetakchiligi, tavsiya etilayotgan metodlar qo'llanayotgan darslar ko'proq sahna tomoshalarini eslatishi, darsning ilmiylik tamoyili biroz "parda ortida qolib", usullar tovlanishining ustuvor bo'lishi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish, darsni mustahkamlash, badiiy tafakkurini shakllantirish maqsadida berilayotgan savol va topshiriqlarning aksariyati faktologik xarakterga ega ekanligi, garchi adibning hikoyalari o'rganilayotgan bo'lsa ham biror o'rinda o'quvchilarga hikoya janri haqida nazariy bilimlar berishning ko'zda tutilmagani kabi yetishmovchiliklarga (xato va kamchilik so'zini qo'llashni joiz topmadik) boyligi bilan e'tirozlarimizga sabab bo'ladi. Albatta, dars - muqaddas jarayon. Uni tashkil etish, o'quvchilarni qiziqtirish, maqsadga erishish oson kechmaydi. Bu borada o'qituvchilarimizning tutgan yo'llarini, qo'llagan metod va usullarini e'tirof etib, amaliyotda keng qo'llanishini

tavsiya etamiz, metodik tavsiyalar berayotgan o‘qituvchilarimizga hurmatimizni izhor qilamiz.

Bizningcha, dars jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchi shaxsining o‘rni modulatsiya qilinib turiladi: o‘qituvchi – sub’ekt, o‘quvchi – ob’ekt, iste’molchi; o‘quvchi – sub’ekt, o‘qituvchi – kuzatuvchi, nazoratchi. Yangilangan pedagogik tafakkur o‘quvchi shaxsini ko‘proq sub’ekt, jarayonning faol ishtirokchisi, “kashfiyotchi”si sifatida bo‘y ko‘rsatishini; loqayd, beparvo, e’tiborsiz tinglovchisi bo‘lmasligini istaydi va bu yo‘lda qat’iy harakat qiladi.



Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish darslari o‘tmish bilan bugun o‘rtasidagi ko‘prik; hayot dinamikasining badiiy tasviri; so‘z qudratining yorqin ifodasi; hayot, yashash suratining asl oq-qora in’ikosi; fikrlar, mushohadalarga turtki beruvchi botiniy qudrat; bugunning shukronasini teran tuyish uchun ma’naviy ibrat, ma’rifiy ozuqa sifatida baholanishi, his etilishi, voqelanishi juda muhimdir. Buning uchun quyidagi bosqichlarni namuna sifatida havola qilamiz:

1. O‘quvchilarni asar matni bilan atroflicha tanishtirish. Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi umumta’lim maktablarining 7-sinfida o‘rganilib, o‘quvchi hikoya matni bilan tanishgach, u haqida ijodiy fikrlaydi. Hikoyadagi qahramonlar ruhiy holatini tushunishga, unda adib qo‘llagan tasvir usullarini tahlil etishga harakat qiladi.

2. Matn mazmuni yuzasidan reja tuzish, muhimni nomuhimdan ajratish. Avvalo, o‘quvchi “Dahshat” hikoyasi mazmuniga mos reja tuzishi lozim. Reja quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Hikoyaning g‘oyaviy yo‘nalishi
2. Olimbek dodxo xonadoni

3. Hikoyadagi ayollar timsoli

4. Yozuvchi mahoratining o‘ziga xosligi.

Asardagi muhim tasvirlardan biri bu – Unsunning qanday dahshatli ish bo‘lsa ham uni bajarib, ozodlikka erishish orzusidir. Shu yo‘lda jonini ham ayamagan qiz obrazi o‘ziga xos tarzda chizilgan.

3.O‘z fikrini asoslash uchun matndan misollar keltira olish. O‘quvchi hikoyani o‘rganar ekan ifodalayotgan fikrlariga monand hikoya matnidan misollar keltira olishi lozim. Chunki fikr tasdig‘iga xizmat qiluvchi misollar bo‘lmasa ilgari surilayotgan mulohazalar asoslanmaydi.

4. Topshiriqni bajarishda mavzuga aloqador qo‘sishmcha manbalardan foydalanish. Qahhor ijodi yuzasidan ko‘pgina tadqiqotchilar izlanishlar olib borgan. Adibning ayrim asarlari haqida ko‘plab maqola, risola, monografiyalar e’lon qilingan. M.Qo‘sishchonov, U.Normatov, S.Sodiq, R.Qo‘chqor va boshqa adabiyotshunoslarning tadqiqotlaridan foydalanish o‘quvchi ijodiy fikrini o‘sishiga yordam berishi shubhasizdir⁸.

5. Tahlilda o‘rganilayotgan asarning janriy xususiyatlarini hisobga olish. O‘quvchi o‘rganayotgan asarining janrini hisobga olishi zarur. Chunki har bir janrning o‘ziga xos janriy xususiyatlari mavjud. Ma’lumki, hikoyada qahramon hayotining muayyan bir davri berilib, unda ko‘pincha xulosa kitobxonga havola qilinadi. Unda kam sonli qahramonlar ishtirok etadi. Qahhor hikoyalarini o‘rganishda shu janrga xos xususiyatlarni ham e’tiborga olish lozim. Qahhor hikoyalarini o‘rganishda tilining sodda, fikrning aniq va lo‘nda ifodalanishi, xalq maqol va iboralarining ko‘p qo‘llanilishiga e’tibor berish lozim.

6. O‘quv topshirig‘idan ko‘zlangan maqsadni to‘g‘ri anglab yetish, mustaqil xulosa chiqarish. O‘quvchi o‘quv topshirig‘ida berilgan maqsadni to‘g‘ri tushunishi, undan muayyan xulosalarga kelishi lozim. “Dahshat” hikoyasidan kelib chiqadigan xulosa insonni erkin va ozod yashashi hamma narsadan ustun turadi.

⁸ Qarang: Abdulla Qahhor: shaxs va ijodkor. : maqlolalar to’plami. – T.: Tamaddun, 2013

7. O‘z fikrlarini yozma va og‘zaki tarzda ravon bayon qilish. O‘quvchi nafaqat fikrini yozma ifoda etishi, balki yozgan fikrlarini og‘zaki ham aytib bera olishi lozim. Anashundagina ularda ijodiy fikrlash ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.

Adabiy ta’limda o‘quvchini, Abdulla Qahhor asarlarini (bu o‘rinda ta’kidlash joizki, o‘rganishga tavsiya etilayotgan barcha adiblarimiz asarlarini) o‘rganishga kirishar ekan, har bir gap birikma so‘z qatiga yashiringan sirdan voqif bo‘lishga, uni idrok qilishga; hissiy ta’sirlanishga, mushohada yuritishga o‘rgatish asosiy vazifalardandir.

“Bemor” hikoyasi tahliliga kirishilar ekan birinchi jumlaning o‘ziyoq o‘quvchi tafakkuriga turtki berishi lozim – ***Sotiboldining xotini og‘rib qoldi***. Hamma narsa, voqeа shundan boshlandi. Sotiboldining xotinini og‘rib qolishi – bu oila tanazzulining muqarrarligi, bu o‘zi halovatsiz o‘tayotayotgan kunlarning yanada faysiz, halovatsiz bo‘lishi; ruhiy azoblarning avjga minishi; “Osmonning yiroq, ernerq qattiq bo‘lishi”; adoqsiz ma’naviy qiyonoqlar, moddiy tahqirlanishlarning yanada palak otishi. O‘quvchilar agar shu birgina jumla ortida shuncha “yuk” borligi his qilsalar, idrok qila bilsalar, muhimi, undan zaruriy xulosalar yasay olsalar shubhasiz, katta yutuq qo‘lga kiritilgan bo‘ladi. O‘quvchi asar yakunida o‘zi uchun zaruriy sanalgan talablar tizimini ishlab chiqadi: doimo sog‘lom bo‘lishga intilish kerak, sog‘lom turmush tarzi – farovonlik garovi, sport bilan shug‘ullanish zarur; zararli odatlarga (ichish, chekish) ko‘nikma hosil qilmaslik kerak, sog‘ligim-boyligim, uni avaylab-asrash o‘z qo‘limizda.

Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul “Tafakkur” jurnalining 2007 yil 4-sonida “Abdulla Qahhor jasorati” nomli esseni e’lon ettirdi. Abdulla Qahhor asarlari bir mo‘jiza ekanini ko‘pchilik e’tirof etgan. Jumladan, atoqli adib Shukur Xolmirzaev «O‘zbek adabiyotida ana shunday mo‘jizalarni yaratib, qoldirib ketgan insonga topinish mumkin», deydi. Men, deb yozadi adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul, aqlimni taniganimdan buyon Abdulla Qahhorning shaxsini ham, asarlarini ham yaxshi ko‘rganman. Qolaversa, chinakam buyuk adibga topinishning nimasi ayb? Lekin hozir boshqa bir gapni aytishim lozim deb o‘ylayman. Yetmishinchchi yillarning oxirlarida Abdulla Qahhorga mening munosabatim bir oz o‘zgargan edi.

Bunga Toshkentga kelib yashay boshlaganimdan keyin ayrim adabiy davra va suhbatlarda Qahhor haqida murosasizlik ila aytilgan tanqidiy mulohazalarni eshitishim ham sabab bo‘lgandir. Endi Qahhorga muxolif kayfiyatdagi yosh ijodkorlarga ham duch kelish mumkin edi. Ulardan ba’zilari Qahhorni «sochidan tirnog‘igacha sho‘ro yozuvchisi» ekanı uchun qoralasa, boshqa birlari uning Cho‘lpon to‘g‘risida aytgan ikki jumla gapini dastak qilib aybnoma to‘qir edi. Xullas, Qahhorning hatto hikoyanavislikdagi yutuqlari ham nazarga ilinmas, uning eng sara, eng o‘qishli hikoyalari ham past baholanardi. Kunlardan bir kun ikki-uch yaxshi hikoyasi bilan tanilib qolgan yozuvchi birodarlarimizdan biri bunday degan edi: «Abdulla Qahhor hikoya yaratmaydi — to‘qiydi. Hikoya yasaydi. O‘tmish mavzuidagi hikoyalari esa tarixni ayblash, tarixga qora chaplash uchun qilingan ishlardir...» Oxirgi, o‘tmishga tegishli jumlalar menda ham e’tiroz tug‘dirmagan. Chunki Qahhorning asarlarini o‘qib, tarixdan faxrlanolmaysiz, tarixga suyanolmaysiz, tarixdan ruhiy madad ololmaysiz. Ularning deyarli barchasida moziy juda nursiz, surursiz va qop-qora bo‘yoqlarda – qalbni g‘am-g‘ussaga chulg‘aydigan manzaralarda namoyon bo‘ladi.

Abdulla Qahhorning o‘ttizinchi yillarda yozilgan «Bemor», «O‘g‘ri», «Anor», «Millatchilar» kabi hikoyalari menga yoqqan. Ularni o‘qib, «Xayriyat, shafqatsiz, adolatsiz, o‘sha tengsizlik zamonlari barham topgan. Xayriyat, xalqimiz o‘sha kulfat, musibat, son- sanoqsiz baxtsizliklardan xalos bo‘lgan», deb o‘ylaganman. Ammo bir kun kelib, «Nainki, ho‘kizidan ayrılgan musibatdiyda bir mo‘ysafidga hech kim rahm qilmasa, axir amaldor ham odam-ku!.. Nainki, bemor xotinga go‘dakning saharlari qiladigan duosidan boshqa davo topilmasa; nainki, sog‘-salomat yigit boshqorong‘i xotiniga ikki donagina anor olib berolmasa...» qabilidagi e’tirozlar menda ham paydo bo‘lishini o‘ylaganman. Ammo shunda ham negadir Qahhorni o‘qishdan o‘zimni to‘xtatolmaganman. Hikoyalarini bo‘lmasa, qissalarini, qissalarini bo‘lmasa, boshqa asarlarini qayta-qayta o‘qiyverganman. Shuni ham aytishim kerakki, men qahhorshunos bo‘laman, shu sohada biror ilmiy tadqiqot yarataman deb Abdulla Qahhor ijodiyotiga bog‘lanib qolganim yo‘q. Ammo Abdulla Qahhor ijodiyoti sir-asrorlaridan voqif bo‘lish niyatida ko‘p olimlarning,

xususan, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Umarali Normatov kabi adabiyotshunoslarning tadqiqotlari bilan ham tanishganman. Abdulla Qahhorni saksoninchi yillarda o'zimcha yangidan kashf qildim desam xato bo'lmas. «Sarob»da Saidiyning «Muvaffaqiyatli chiqqan bir hikoyadagi tipni mamlakatning har burchidan yuzlab, minglab topish mumkin» degan fikri bor. Qizig'i shundaki, bunday tiplar ko'p uchrashidan tashqari, ularning umri ham uzoq bo'larkan. Zamon, makon, vaqt tushunchalarini ular ko'pda tan olavermas ekan. Men ana shunda «O'g'ri» hikoyasidagi Qobil bobo bizdan ancha olis davrlarda yashab, o'tib ketgan bo'lsa-da, «qobilbobochilik» o'ziga xos tarzda davom qilayotganini angladim. Abdulla Qahhorning o'ndan ortiq hikoyasini bitta nom — «Boshsiz odam» nomi ostida birlashtirish mumkin... To'liq ma'noda Faxriddinga monand, uningdek laqma, irodasiz, mustaqil fikrdan mahrum go'l kimsani, ehtimol, hayotda uchratish qiyindir. Ammo atrofga sinchkovlik bilan ko'z tashlab, mushohada etilsa-chi? Hayronlar qolasiz... Beixtiyor, «boshsiz odam» buncha ko'p-a, deysiz. Abdulla Qahhor o'tmish mavzuiga bejiz qiziqmagan ekan. Moziyning zamon bilan doimo bog'lanadigan nozik rishta va halqalarini topib, faqat tarix bag'rida qolib ketmaydigan hayot haqiqatlari va fojialarini kuyib-yonib tasvirlagan ekan. Abdulla Qahhor ijodidagi shafqatsiz realizmning tub ildizi ham balki ana shundadir. Co'nggi yillarda ayrim yozuvchi, olim jo'ralarimiz bilan Abdulla Qahhor to'g'risida ko'p gurunglashib, fikr almashdik. Endi o'ylasam, «Abdulla Qahhor nainki adabiyotning, yurt va millatning ham vijdoni» degan mohiyatga men alohida urg'u bergan ekanman. Darvoqe, marhum adibimiz O'lmas Umarbekov ham ustozni millat vijdonini tamsil etgan yozuvchilardan deb ta'riflagan. Ha, Abdulla Qahhor bosib o'tgan hayot yo'li ham, ijod yo'li ham vijdon yo'li edi. U so'nggi nafasigacha millat dardi bilan yashadi. Shuning uchun ham unga og'ir bo'lgan. Mamlakatda toza fikrlaydigan odamlar kamayib ketgani, shular ham iqtidorini yangi haqiqat izlashga emas, eskilarini takrorlashga sarf aylaganiga qaramay, Abdulla Qahhor doimo ozod fikr, yangi haqiqatlar uchun kurashgan — yolg'izlanish, tanqidu ta'qiblarni pisand qilmasdan kurashgan. Abdulla Qahhorning ijodiy nafasidan nomardlik, har qanday g'irromlik titragan, tubanlik o'zini panaga tortgan. Unga tish qayraganlar esa

yuzlariga niqob tortishga majbur bo‘lishgan. Uning borligi millatning ham davlati, ham sarvati, ham shavkati bo‘lgan. Mubolag‘asiz shunday! Konstantin Stanislavskiyning «San’atdagi hayotim» kitobida L. Tolstoy haqida aytilgan bunday bir gap bor: «Uning hayotligida biz «Tolstoy bilan bir zamonda yashash qanday baxt!» der edik. Yuragimiz g‘am-g‘ussaga to‘lib-toshganda, hayotda qiynalganda yoki kishilar ko‘zimizga yirtqich bo‘lib ko‘ringanda «Yasnaya Polyanada Tolstoy bor-ku!» degan fikr bilan o‘zimizga tasalli berardik...» Xuddi shu kabi, Abdulla Qahhor tirikligida o‘zbek ziylolarida ham shunday bir qanoat va tasalli bor edi. Lekin, ishonchim komilki, «Bizning Abdulla Qahhordek benazir yozuvchimiz bo‘lgan, u o‘zining boqiy asarlari va o‘lmas jasorati ila doimo biz bilan birga yashayotir...» degan g‘urur-iftixor tuyg‘usi bugun ham ijod ahlining mahzun qalbiga umid va jasorat bag‘ishlab turadi.

Iste’dodli ijodkor iste’dodsizlik bilan aslo chiqisha olmaydi. Chunki haqiqiy iste’dod — adabiyotning sergak posboni. Adabiyotni iste’dodsizlar xurujidan iste’dod sohiblari muhofaza etmasa, boshqa hech kim himoya qilolmaydi. Bizning nazarimizda, o‘tgan asrda yashab ijod qilgan hech bir o‘zbek ijodkori adabiyotimizning taqdiri, tozaligi va daxlsizligi uchun Abdulla Qahhor kabi qat’iyat bilan kurashmagan, bu yo‘lda Abdulla Qahhorchalik aziyat ham chekmagan. Insof yuzasidan buni tan olish lozim. Abdulla Qahhorning borligi — tirikligining o‘zi o‘rtamyonachilik, iste’dodsizlik, kitobxonni nazar-pisand etmaslikka qarshi bir qalqon bo‘lgan. Faqat yaxshi asar yozishni emas, g‘oyaviy nochor, badiiy yaroqsiz asarlarga yo‘l bermaslikni u o‘zining muqaddas burchi deb hisoblagan. Unga ko‘ra, yozuvchi adabiyotga ikki xil yo‘l bilan — biri tutab, ikkinchisi yashnab kirib keladi. «Tutab kirgan yozuvchi uzoq tutaydi, ko‘nglidan chiqarib emas, qornidan chiqarib asar yozadi, yozuvchilik umrining oxirigacha tutaydi... Yozuvchilikka cho‘g‘day yashnab kirgan ijodkor asardan-asarga yashnay beradi, oxirda abadiy so‘nmas o‘tga aylanadi». Yana bir toifa qalamkashlar bo‘ladiki, ular adabiyotga «o‘g‘ri mushukday tuynukdan» tushadi. Bular uchun adabiyot san’at emas — kasb, tirikchilik manbai. Adabiyotga tutab yoki o‘g‘ri mushukday tuynukdan kiradigan yozuvchilarning eng oliy a’moli mahalliy va «mahalla klassiklari» bo‘lishdir. Adabiyot shularning

dastidan jabr ko‘radi. Shular badiiy so‘z, obrazli fikr zavqidan kitobxonni benasib etish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Olamning o‘zgarishi — odamning o‘zgarishiga bog‘liq. Odamning ongi, fikr-qarashlari yangilanmas ekan, hech qachon olam yangilanmaydi. Abdulla Qahhor mustabid xonlar, sultonlar hukmronlik qilgan eski zamon insonning qo‘l-oyog‘i bilan birga ongi, aqli va qalbini ham kishanlab tashlaganini bolaligidayoq ko‘rgan, o‘sha chirkin qullik muhitida yashab ulg‘aygan edi. Abdulla Qahhorning o‘nlab asarlari, xususan, «O‘tmishdan ertaklar» qissasida tasvirlangan voqeа-hodisa va ijtimoiy manzaralar — asrlar mobaynida xalqni yanchib, ta’qib etib kelgan musibat, g‘am-anduh va fojialarning o‘ziga xos haqqoniylar talqinidir. «Xalqning ko‘zi bog‘lansa, qulog‘iga qo‘rg‘oshin quyilsa, taqdir hukmi o‘limdek haq, degan aqidani uning zehniga singdirish osonroq bo‘ladi». Bu fikr — xalqning ko‘zi bog‘lanib, qulog‘iga qo‘rg‘oshin quyilganda uning og‘ir alam va sitamlarga yo‘liqishiga bevosita guvoh bo‘lgan, bu hayotda inson tasavvuriga sig‘maydigan balo-qazolar qo‘pishini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, ko‘nglidan o‘tkazgan yozuvchining, ya’ni Abdulla Qahhorning fikri. To‘g‘ri, adib oktyabr inqilobi xalqimizning ko‘zini, qulog‘i va ongini ochadi, endi taqdir hukmiga o‘limga ishongandek ishonishlar barham topadi, deb umid qilgan, davlat va partiya belgilagan mafkuraviy chiziqlardan chetga chiqmaslik niyati bilan yashab, ijod etgan. Shu ma’noda Abdulla Qahhorni ayplashga yoki qoralashga dalil bo‘ladigan fikr-mulohazalarni uning asarlaridan ko‘chirma olib, qatorlashtirish qiyin emas. Ammo buning bilan Abdulla Qahhorning asl badiiy olami, yozuvchilik qiyofasi xiralashib qolmaganidek, san’atkorlik maqomi ham pasaymaydi. Abdulla Qahhor bir suhbatida «Men adabiyotga uning mohiyatini bilmasdan, adabiyot propaganda quroli ekanini yuzaki, juda ham yuzaki tushunib kirganman», deydi. Tavalludiga oltmish yil to‘lganda esa «Men qirq yillik ijodiy faoliyatim davomida ko‘p ish qilganim yo‘q, chunki bu qirq yilning ko‘pini tajriba orttirishga sarf qildim», degan edi. Tabiiyki, adabiyotning mohiyatini bilmasdan qilingan ish — adabiyot namunasi sifatida yashay olmaydi. Abdulla Qahhor bunday asarlarini ko‘p jildligiga kiritmagan. Va bu ishi bilan haqiqiy yozuvchi nainki boshqalarning, balki o‘zining ijodiga ham tanqidchi ko‘zi bilan xolisona qarashga qodirligini isbotlagan.

Demoqchimizki, agar Abdulla Qahhorning sho‘ro davlati va kommunistik partiyaga munosabati oddiy odamlar ishonchidan farq qilmasa edi, o‘zini siyosat va adabiyot rahnamosi deb bilgan «dohiy» va «dohiycha»larni vahimaga solgan o‘sha mashhur fikrni u hech vaqt aytmagan bo‘lardi. Ustoz Ozod Sharafiddinov bunday hikoya qiladi: «Ba’zan do‘sstarim — deydi Abdulla Qahhor yubiley kechasidagi nutqida, menga ta’na qilib, «katta»larga chest berib turmaysan, deyishadi. Men chest berolmayman. Chunki men partiyaning oddiy soldati emas, ongli a’zosiman». Avvalo shuni aytish kerakki, bu gaplar birdan, majlis vaqtidayoq yozuvchining esiga kelib qolgan, hayajon ichida og‘zidan chiqib ketgan gaplar emas, Abdulla Qahhor besh kun avval ikki-uch shogirdiga tantanali kechada gapiradigan gapini o‘qib bergen edi. Shunda shogirdlari yuqoridagi iborani aytmaslikni, agar bu ibora aytiladigan bo‘lsa, adabiy muhitga yomon ta’sir qilishini ta’kidlashdi...» Shogirdlar ham oddiy kishilar bo‘limgan, albatta. Ularning har biri el-yurtga tanilgan, hayotning past-balandini yaxshi bilguvchi iste’dod sohiblari edi. Shunga qaramasdan, Abdulla Qahhor shogirdlarining fikrini olmasdan, gapirishi shart deb o‘ylagan gapini aytgan. Unga munosabat keskin o‘zgarishini bilsa-da, «Men partiyaning oddiy soldati emas, ongli a’zosiman» deyishdan o‘zini cheklay olmagan. Chunki zamonasozlik, xushomadgo‘ylik, madhiyabozlik avj olgan va partiyaga yaldoqlanish, uning har bir da’vatiga «labbay» deya javob qaytarish umumiyligi udumga aylangan muhitda «ongli a’zolik» huquqi ham katta gap hisoblangan. Ongli a’zo bo‘lmoq — hech bir narsaga ko‘r-ko‘rona sig‘inmaslik, bo‘lar-bo‘lmasga sadoqat izhoriga berilmaslik, har qanday vaziyatda ham o‘zining aql-idroki va salohiyatiga suyana bilish deganidir. Ong va fikr mustaqilligiga erishgan kishi — qalbi va ruhoniysi hur inson bo‘ladi. Faqat shunday insongina umumiyligi betamizlik, hech kimdan hisob talab etilavermaydigan «ulgurji» riyokorlikka bosh qo‘shmaydi. Abdulla Qahhor odamning Odam bo‘lib kun kechirishini, inson o‘z ahvolini bilishda adashmasligini, tosh chaynasa ham haqiqatga xiyonat qilmasligini istagan. Agar o‘tmishda qullik, qaramlik, zabunlik hukm surgan bo‘lsa, kelajakda erkinlik, tenglik, baxtiyorlik qaror topadi, deb umid qilgan Abdulla Qahhor. Agar moziyda mehnatkash xalq ko‘zidan qonli yoshlar oqib, ajdodlarimizning boshi musibat va

kulfatdan chiqmagan bo‘lsa, sho‘ro zamonida yig‘i — shodlikka, kulfat — quvonch va xotirjamlikka o‘rin bo‘shatar deb ishongan Abdulla Qahhor. Vaqt o‘tishi bilan buyuk adib bu ishonch aslida ulkan adashish, aldanish ekanini bilgan, shirin orzu va umidlar bag‘ridan umidsizlik va dilni cho‘ktirguvchi ishtibohlar ulg‘ayayotganiga iqror bo‘lgan.

O‘quvchilarning hikoyalarni tahlil qilishida kreativ yondashuvini ta’minlash o‘qituvchi tanlagan uslublarga bog‘liq ekanini isbotladik.

III bob. Ishning amaliyotga tatbiqi

3.1. Ta’lim bosqichlari dastur va darsliklari tahlili

Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, ta’lim tizimiga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda ta’limning huquqiy asoslari, istiqbollari qonun bilan, uning mazmun va sifati standartlar bilan, tashkiliy-amaliy jihatlari o’quv dasturlari bilan belgilangan, o’quv- metodik tadbirlar darslik va qo’llanmalarda tavsiya etilgan. Demak, jamiyatda sohaning qonuniy, huquqiy, tashkiliy asoslari yaratilgan, tizimga solingan. Endi bu yog’i ana shu “*belgilab qo’yilgan*”larni amalga oshiruvchi muassasalar, ta’lim amaliyotining ishtirokchilari: pedagoglar, soha rahbarlari, shuningdek, o’quvchilar va ularning ota-onalariga bog’liq.

Ta’lim bosqichlarida o’qitiladigan hamma predmetlar uchun bir xil shart-sharoit, o’quv, moddiy-texnik baza yaratilgan. Ularning barchasi uchun umumiy bo’lgan muvaffaqiyatlar, qo’lga kiritilgan yutuqlar ham bor. Lekin har bir predmet bo’yicha ishlar sarhisob etilganda turlicha natijalar qayd etilayotganligiga guvoh bo’lamiz. Ilmiy-nazariy asoslari deyarli barqaror, o’zgarmas bo’lgan tabiiy – matematik fanlar bilan jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy qarashlariga aloqador bo’lgan ijtimoiy-gumanitar fanlarga yondashuv o’rtasida tafovut bo’lishi tabiiy bo’lganidek, ularni o’qitishda duch kelinadigan muammolarda ham ayrichaliklarning bo’lishi turgan gap. Chunki mustaqillikdan keyin nazariy mohiyati tubdan qayta ko’rib chiqilgan ijtimoiy fanlarning ilmiy-pedagogik, o’quv-metodik asoslariga yangicha yondashuvni davrning o’zi taqozo etmoqda.

Endilikda o’zbek adabiyoti tarixi yangilanayotgan badiiy tafakkur talablari asosida qayta idrok etilmoqda, bu davrda yaratilgan asarlarning asl mohiyatini ochishga harakat qilinmoqda . Adabiyotshunoslik uzoq vaqt mobaynida badiiy asarlarni asosan ijtimoiy nuqtayi nazardan tekshirishga moslashgan bo’lsa, endi mavjud qoliplarni tark etaroq badiiy matnga estetik talablar asosida yondashishga har qanday xulosani matndan keltirib chiqarishga urinmoqda. Natijada, ko’plab

bitiklarning asl badiiy qiymati, bir qator adiblarning millat estetik tafakkuri taraqqiyotidagi tarixiy o'rni xolisona belgilanayotir.⁹

Adabiyotshunoslik ilmida ro'y berayotgan yangilanishlarni adabiyot o'qitish jarayoniga tadbiq etish o'tgan asr 90-yillarining birinchi yarmidan boshlab yaratilayotgan dastur, darslik va qo'llanmalarda aks etib, bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Bu o'z navbatida Respublika maktablaridagi adabiyot o'qitish ishiga ijobiy turtki berdi. Uzluksiz ta'lim tizimi, dastur va darsliklarini yaratish ishlariga respublikamizning taniqli olimlari va metodistlarining jalb qilinishi sohada muayyan yutuqlarga erishishimiz uchun zamin hozirladi. Bu borada Q. Yo'ldoshev, B. To'xliyev, S. Matchon, M. Mirqosimova, S. Olim, S. Ahmedov, R. Qo'chqor, Q. Husanboyeva, V. Qodirovlarning olib borgan tadqiqotlari, yaratgan monografiya va qo'llanmalari alohida e'tiborga molikdir.

Istiqlol davri adabiyotshunosligi XX asr adabiyoti namunalariga xolislik va haqqoniylig tamoyillari asosida yondashishni birinchi galdeg'i vazifalardan biri sifatida belgiladi. Natijada, avvallari noto'g'ri va bирyoqlama talqin qilingan asarlar qayta tahlil etilib, ularning asl haqiqatlari tiklandi. O'zbek adabiyotining adabiyotshunosligening yetuk namunalari qayta nashr etildi. Umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlari uchun yaratilgan darslik va qo'llanmalarda bu davr namunalariga ham keng o'rin ajratiladi.

Adabiy ta'limda innovatsion metodlardan foydalanish o'qituvchilarining pedagogik tajribasi, metodik mahoratiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Abdulla Qahhorning o'tmish haqidagi eng barkamol hikoyalardan biri «Dahshat»dir. Bu hikoyani yozish niyati adib yuragiga 50-yillarning boshida tushgan edi. Deyarli o'n yil mobaynida u hikoyani o'yladi, pishitdi, hayolida obdan ishladi. Hikoya o'zbeklar o'rtasida ancha keng tarqalgan oddiy bir latifa asosiga qurilgan. Biroq yozuvchi iste'dodining kuchi bilan bu latifaga favqulodda hayotiy mazmun baxsh etadi. «Dahshat»ning o'tmish haqidagi boshqa hikoyalardan farqi shundaki, adibadolatsizlik va tengsizlik qurbanlarini, ojiz, notavon, mute'

⁹ Qozoqboy Yo'ldoshev. Yoniq so'z. – T.: Yangi asr avlod, 2006. 94-b.

odamlarni emas, o‘z haq-huquqi, erki uchun jur’atsizgina bo‘lsa-da kurash yo‘liga kirgan, bu yo‘lda har qanday dovyurak odamni ham Dahshatga soluvchi qabriston vahimasidan cho‘chimagan, nihoyat, bu yo‘lda Qurban bo‘lgan Unsinni qahramon qilib olgan. Unsin - Olimxon dodhoning sakkizinchи xotini. U eng kichik xotin, binobarin, eng suyukli xotin. Shunday ekan, u dodhoning dargohida davrini surib yashayverishi mumkin. Biroq, Unsin uchun bu xonadon go‘ristondan ham xunukroq va dahshatliroq ko‘rinadi. U hayotini xavf ostiga qo‘yishdan cho‘chimay, bu xonadondan qutulishga, o‘zining Ganjiravoniga ketishga ahd qiladi va kurashda halok bo‘ladi. «Dahshat» hikoyasining ajoyib tomonlaridan biri shundaki, undagi xarakterlar va, ayniqsa, Unsin xarakteri psixologik jihatdan chuqur dalillangan, syujet puxta ishlangan voqealar tabiiy ravishda biri-birining ichidan chiqib kelaveradi, har bir epizod bir halqa, lekin ular bir-birlari bilan tutashib, yaxlit uzilmas zanjirni tashkil etadi.

6-sinf adabiyot darsida Abdulla Qahhor ijodiga oid dars ishlanma havola qilamiz.



Mavzu: Abdulla Qahor hayoti va ijodi
(1907 – 1968)

Darsning maqsadi:

- A) ta’limiy maqsad:** o‘quvhilarga Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish, har bir ijodkorning o‘ziga xosligini idrok etish va izohlay olish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- B) tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilar qalbida badiiy adabiyotga muhabbat hissini uyg‘otish orqali ularni ma’rifatparvarlik ruhida tarbiyalash, o‘zaro do‘stona munosabatlarni shakllantirish;
- D) rivojlantiruvchi maqsad:** o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish, fikrlash doirasini kengaytirish;

Dars tipi: yangi bilim beruvchi.

Dars uslubi: Ko‘rgazmali-amaliy;

Dars usuli: Noan`anaviy („O‘yla, Izla, Top” intelektual o‘yini, “Mozaika” metodi “G‘alvir” o‘yini, “Orkestr” usuli, “Klaster” usuli va daraxt konstruktori)

Dars jahozi: 6-sinf adabiyot darsligi, slaydlar, vatman, ko‘rgazmalar, tarqatma, “Rag‘bat” va “Jarima” kartochkalari.

Texnik vositalar: Kompyuter, videoproyektor, ekran.

Darsning blok sxemasi

T/r	Darning bosqichlari	Vaqt (daqiqa)
1	Tashkiliy qism	3
2	Guruhlarga topshiriq berish orqali o‘tilgan mavzuni takrorlash.	8
3	Yangi mavzuni tushuntirish.	15
4	Interfaol usullardan foydalangan holda yangi mavzuni mustahkamlash.	15
5	O‘quvchilarni baholash.	2
6	Uyga vazifa berish.	2

Darsning texnologik xaritasi

Darsning maqsadi:	O‘quvchilarga Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish, har bir ijodkorning o‘ziga hosligini idrok etish va izohlay olish ko‘nikmasini rivojlantirish;
Darsning vazifasi:	Ushbu mavzuga qiziqtirish orqali boshqa adib va shoirlarning adabiy merosini o‘rganish, asarlarini tahlil qilish, uning mazmun mohiyatidan kerakli xulosalar chiqarish ko‘nikmasini hosil qilish.
Darsning tashkil etish texnologiyasi:	<p>Uslub: Ko‘rgazmali-amaliy.</p> <p>Shakl: Kichik guruhdha va individual tartibda ishlash.</p> <p>Usul: Noan`anaviy</p> <p>Nazorat: Og‘zaki, yozma va o‘z-o‘zini baholash.</p> <p>Vosita: Darslik, slaydlar, vatman, ko‘rgazmalar, tarqatma, kompyuter, videoproyektor, ekran</p> <p>Baholash: “rag‘bat” va “jarima” tizimi asosida.</p>
Kutiladigan natija.	<p>O‘qituvchi:</p> <p>Bir darsda hamma o‘quvchini baholaydi. Mavzu haqida batafsil ma’lumot to‘playdi. Qisqa vaqt ichida yuksak natijaga erishadi.O‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malaka hosil qiladi.</p> <p>O‘quvchi:</p>

	O‘z fikriga ega boladi. Qisqa vaqtda ko‘p ma’lumotga ega bo‘ladi. Fikrlash, esda saqlash va nutq qobiliyati oshadi. Guruh bilan ishslash malakasi oshadi.
Kelgusi rejalar.	<p>O‘qituvchi: Ilg‘or pedagogik texnologiyani o‘rganadi. O‘z darsini tahlil qiladi. Yangi qo‘sishimcha adabiyotlarni o‘rganadi. O‘quvchiga har tomonlama ibrat bo‘lishga harakat qiladi.</p> <p>O‘quvchi: O‘z ustida ishlaydi. Bilim darajasi oshadi. O‘z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir xulosaga kelish malakasi oshadi. Yangi qo‘sishimcha adabiyotlarni o‘rganadi.</p>

Darsning shiori: “Adabiyot yashasa ,millat yashaydi”.

Darsning borishi:

- a) **Psixologik iqlim yaratish** (Salomlashish, sinf va o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini baholash, sana, davomat va ob-havoni aniqlash).
- b) **darsning mavzusi va masadini e`lon qilish.**
- c) **darsda o‘zlashtirilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarni e`lon qilish:**
- e) **o‘quvchilarni guruhgaga bo‘lish.** Guruhlarga “Bilimdonlar”, “Zukkolar”, “Adabiyotshunoslar” nomlarini berish.
- f) **darsning oltin qoidalarini ishlab chiqish.**

1. O‘zaro hamkorlik.
2. Do‘stlik.
3. Topqirlik.
4. Tezkorlik.
5. Zukkolik.
6. Hamjihatlik.

II.O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

O‘quvchilarga o‘tilgan mavzu Hamid Olimjonning “O‘zbekiston” she‘ri yuzasidan quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:


1-guruhga: She`rni nima sababdan “O‘zbekiston” deb nomlanganini izohlab ko‘ring.

2-guruhga: She`rda lirik qahramon o‘z yurti va zamondoshlariga qanday ta’rif beradi?

3-guruhga: “O‘zbekiston” she`rida qanday badiiy tasvir vositalaridan foydalanilgan?

O‘quvchilarning javoblari tinglanadi. Guruhlarning javoblari o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi va faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Shundan so‘ng “O‘yla, Izla, Top” intelektual o‘yini o‘tkaziladi.



Bunda guruh sardorlari kelishgan holda monitorda ko‘rsatilgan shartlardan birini tanlaydi. Masalan, “Eng...Eng...Eng...” sharti tanlanadi. Bu shartda har bir guruhga Hamid Olimjonning hayoti va ijodiga doir „eng” so‘zi ishtirok etgan 3 tadan savol beriladi. Savollar monitor orqali berilishi yoki o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittirilishi ham mumkin.

1- guruh uchun savollar:

1. Hamid Olimjon eng birinchi ta’limni kimgardan oldi?
2. Shoirnining eng birinchi she’rlar to‘plami qanday nomlanadi?
3. Hamid Olimjonning eng birinchi faoliyat ko‘rsatgan gazetasи?

2-guruhgaga:

1.Hamid Olimjonning eng dastlabki hikoyalar to‘plami qanday nomlanadi?

2.1931-yilda qanday kitobchasi chop etildi?

3.Hamid Olimjonning shundan so‘ng yana qanday she’rlar, dostonlar va tarjimalardan iborat kitoblari dunyo yuzini ko‘rdi?

3-guruhgaga:

1.Hamid Olimjonning eng sara doston va ertak-dostonlari ?

2.Adibning eng qiziqarli sahna asarlari?

3.Hamid Olimjonning qanday eng yaxshi xizmatlari uchun Fanlar Akademiyasiga muxbir a’zo etib tayinlanadi?

“**Bilimlar bulog‘i**” deb nomlangan keyingi shartda o‘quvchilar quyidagi slaydda ko‘rsatilgan fanlardan birini tanlashadi. Masalan, matematika fani tanlansa, har bir guruhgaga bittadan matematik misol beriladi. O‘quvchilar misollarni bajarishlari asnosida kelib chiqqan sonning Hamid Olimjonning hayoti va ijodiga tegishliligini topishlari kerak bo‘ladi. Misollar ham slayd orqali ko‘rsatiladi.

MATEMATIKA, TARIX, ONA TILI

1-Guruhgaga

$$1203+706=$$

2-Guruhgaga

$$964*2=$$

3-Guruhgaga

$$3888\backslash 2=$$

Bunda 1- matematik amalning javobi 1909, ya’ni 1909-yilda Hamid Olimjon tavallud topgan kun. 2-matematik amalning javobi 1928, ya’ni 1928-yilda Hamid Olimjon O‘zbekiston oliy pedagogika institutiga qabul qilindi. 3-matematik amalning javobi 1944 , ya’ni 1944-yilda Hamid Olimjon vafot etgan yildir. Demak, darsda “Fanlararo integratsiya” usulidan foydalanishni o‘rgandik.

Tarix fanidan har bir guruhga monitor orqali bittadan savol beriladi:

1. “O‘zbekiston” she`rining hamisha suyib o‘qilishi va o‘rganilishining sababi nimada?
2. “O‘zbekiston” she`rida “Go‘daklarni yutmas och o‘lim” degan misrasini vatanimizning o‘tmishi bilan bog‘lang.
3. She`rda milliy ma’naviyatimizga xos belgilarni ayting.

O‘quvchilar tomonidan ona tili fani tanlanganda, belgilangan vaqt oralig‘ida „O‘zbekiston” she`ri matnidan 1-guruh sifatlarni, 2-guruh fe`llaeni, 3- guruh gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini aniqlashlari kerak bo‘ladi.

Navbatdagi „Elektron savol” shartida monitor orqali guruh sardorlariga savol beriladi. Bunda Hamid Olimjonning „O‘zbekiston” she`ridan parcha audioyozuv orqali ingliz tilida o‘qib eshittiriladi. Sardorlar she`rni tarjima qilishlari kerak bo‘ladi.

Shundan so‘ng „Orkestr” usulidan foydalaniladi. Bunda Hamid Olimjonning „O‘zbekiston” she`rini yoddan aytib berishlari kerak bo‘ladi. Sherni 1-guruh a’zolari boshlab bersa, xohlagan keyingi guruh vakili davom ettirishi kerak bo‘ladi. O‘qituvchi „Drijyor” vazifasini bajaradi. U tayoqchasi bilan ko‘rsatgan guruh vakili she`rni kelgan joyidan davom ettira olishi kerak, aks holda orkestrdan chetlashtiriladi Bunda o‘quvchilarning she`rni yod olganlik darajasi , ifodali aytishi, ravon va go‘zalligi hisobga olinadi.

O‘quvchilar tomonidan berilgan javoblar umumlashtirilib, shartlarda faol ishtirok etgan o‘quvchilarga rag‘bat kartochkalari beriladi.

III. Yangi mavzuni bayoni.

Yangi mavzuni yoritishda „Mozayika“ usulidan foydalaniladi. Bunda o‘qituvchi yangi mavzuni uch qismga bo‘lib, oldindan o‘quvchilarga vazifa qilib beradi. Guruhlar Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi yuzasidan ma’lumot berishadi.

O‘qituvchi; O‘zbek milliy nasrining zabardast vakillaridan biri yozuvchi Abdulla Qahhor 1907- yilning 17- sentabrida Qo‘qon shahridan uncha uzoq bo‘lmagan Asht qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning otasi usta Abduqahhor temirchilik bilan shug‘ullanardi. Yozuvchi hayoti juda og‘ir kechdi.

Abdulla Qahhor yetti yoshga to‘lganda 1-jahon urushi boshlanib, uning hayotini yanada og‘irlashtirdi. Usta Abdulla Qahhor tirikchilik uchun pul topish ilinjida Qo‘qon atrofidagi qishloqlarga ustaxonasini ko‘chirib borar, oila ham uning ortidan sarson – sargardon sudralib yurardi. Bularning bari Abdullajonning bo‘lg‘usi yozuvchining ruhiyatiga, dunyoqarashi va xarakteridaga ta’sir qilmasligi mumkin emas edi, albatta.

“Bilimdonlar” guruhi

Abdullajonning savodi o‘sha qishloqlardagi eski maktablarda chiqqan bo‘lsa-da, ota-onasi Qo‘qonga ko‘chib kelib, muqim o‘rnashgandan keyingina u chinakkam maktab ta’limni oladi. Avvaliga shahardagi sobiq xotin-qizlar gimnaziyasi o‘rnida tashkil etilgan internatda, keyin esa o‘qituvchilar tayyorlanadigan texnikumda o‘qiydi. U yillari savodli, qo‘lida qalami bor yoshlarga talab nihoyatda katta edi. Shu tufayli ham Abdulla Qahhor Turkiston o‘lkasining markazi Toskentga keladi va „Qizil O‘zbekiston“ gazetasida adabiy xodim bo‘lib ishga joylashadi. 1926-1930-yillar oralig‘ida O‘rta Osiyo davlat universitetida o‘qiydi. O‘qib yurgan ketma-ket chop etiladi. Yozuvchi bu asarlari ostiga Norin shilpiq, Sarimsoq singari taxalluslar qo‘yardi.

Yozuvchining dastlabki qissasi „Qishloq hukm ostida“ 1932-yilda chop etilgan.

“Zukkolar” guruhi:

Abdulla Qahhor 1934-yilda „Sarob” deb atalgan yirik romanini yozib tugatdi. 1935-1939-yillar oralig‘ida adibning uchta „Hikoyalar” to‘plami, 1937-yilning oxirida esa „Sarob” romanini o‘quvchilarga kitob shaklida taqdim etdi.

1939-1945-yillarda bo‘lib o‘tgan Ikkinchi jahon urushi Abdulla Qahhorning ijodida ham o‘z izini qoldirmay qo‘ymadi. O‘scha yillari adib fashist gazandalarini la’natlagan qator felyetonlar, urushda mardlik namunalarini ko‘rsatayotgan o‘zbek jangchilarini madh etgan maqolalar, urush ortida zahmatli mehnat qilayotgan qariyalar va ayollar to‘g‘risidagi o‘nlab hikoyalarini bitdi.

Urushdan keyin 1949-yilda Abdulla Qahhor qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish mavzusi yoritilgan „Qo‘shchinor” nomli romanini yozib e’lon qildi. Biroq noo‘rin tanqidiy gaplar tufayli bu asar liddiy qayta ishlanadi va „Qo‘shchinor chiroqlari” nomi bilan qayta chop ettiladi.

“Adabiyotshunoslar” guruhi:

Abdulla Qahhor milliy teatr san`atimiz rivojiga ham katta hissa qo‘shgan ijodkor sanaladi. Uning „Shohi so‘zana”(1951-yil), „Og‘riq tishlar”(1954-yil), „Tobutdan tovush”(1962-yil), „Ayajonlarim”(1967-yil) singari komediyalari o‘z davri tomoshabinlarining sevimli asarlariga aylangan edi. Adibning „Sinchalak”, „O‘tmishdan ertaklar”, „Muhabbat”, „Zilzila” qissalari zamonaviy qissachilik rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. „Zilzila” qissasi tugallanmay qolgan qissasi hisoblanadi.

ABDULLA QAHHOR - TARJIMON

- M. Gorkiy. «Mening dorilfununlarim».
- Gogol. «Revizor».
- L. N. Tolstoy. «Urush va tinchlik» romani (*I – II kitoblari*).
- F.Gladkov. “Olovli ot”.
- M.Shaginyan. “Gidrosentral”.
- A.Serafimovich. “Temir oqim”.

Abdulla Qahhor 1968-yilning 25-may kuni vafot etdi va Toshkentdagi Chig‘atoy qabristoniga dafn qilindi. Poytaxtimizda adib yashagan maskan bugungi kunda „Abdulla Qahhor uy-muzeyiga aylantirilgan.


E’TIROF



- 1966-yil - «O’tmishdan ertaklar» qissasi uchun Hamza nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo’lgan.
- 1967-yil - Abdulla Qahhor adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun O’zbekiston xalq yozuvchisi unvoni bilan taqdirlandi.
- 2000-yil - «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan.

O’zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo’shgan ulkan hissasi uchun Abdulla Qahhor „O’zbekiston xalq yozuvchisi” unvoniga, mustaqillik davrida esa „Buyuk xizmatlari uchun” ordeniga munosib deb topilgan. O‘qituvchi yangi mavzuni „Klaster” usulidan foydalanib, tushuntirishda davom etadi:

ABDULLA QAHHORNING ADABIY MEROSI




IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.



Yangi mavzuni mustahkamlash uchun o‘quvchilar o‘rtasida „G‘alvir”, „Daraxt konstruktori“ didaktik o‘yinlari o‘tkaziladi.

„G‘alvir“ o‘yinida 1-guruh a’zolari monitotorda ko‘rsatilgan, ya’ni aralash holda berilgan Abdulla Qahhorning asarlarini turlarga ajratadilar. Masalan, hikoyalari, qissalari, romanlari va komediyalari kabi.



2- guruh a'zolariga Abdulla Qahhor hayoti va ijodiga doir test tarqatmalari beriladi. Masalan:

1. Abdulla Qahhor qanday taxalluslar bilan ijod qilgan?

- A. Fitrat.
- B. Norin shilpiq, Sarimsoq.
- C. Hakimzoda.
- D. Taxallusi yo'q.

2. Abdulla Qahhorning dastlabki qissasini toping.

- A. "Qishloq hukm ostida"
- B. "Daxshat"
- C. "Zilzila"
- D. "Muhabbat"

3. Abdulla Qahhorning tugallanmay qolgan asari nomi ko'rsating.

- A. "Zilzilza"
- B. "Qishloq hukm ostida"
- C. "Bemor"
- D. "Ayajonlarim"


4. Abdulla Qahhorning romanlari berilgan qatorni belgilang.

- A. "Zilzila", "Sarob"
- B. „Bemor”, „O‘g‘ri”
- C. "Sinchalak", "Muhabbat"
- D. "Sarob", "Qo‘schinor chiroqlari"

5. Yozuvchi qanday unvon bilan taqdirlangan?

- A. "Buyuk xizmatlari uchun"
- B. "O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yozuvchi"
- C. "O‘zbekiston xalq yozuvchisi"
- D. "El-yurt hurmati"

3-guruh daraxt ko‘rgazmasining pastki shoxlariga Abdulla Qahhorning hikoyalarini va qissalarini, o‘rta qatoriga komediylarini, tepa qatoriga romanlarini joylashtiradilar.



O‘quvchilarning bergan javoblari mustahkamlanadi, guruhlarning to‘plagan rag‘batlari jamlanib baholanadi va o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. O‘quvchilarning darsdagi ishtiroki uchun “Eng faol o‘quvchi”, “Eng bilimdon o‘quvchi” nominatsiyalari beriladi.

V. Uyga vazifa berish.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash, “Bemor” hikoyasini o‘rganib kelish.

Xulosa

Adabiy ta’lim asosini adabiyot o‘qitishning maqsad va vazifalari hamda uning mazmuni tushunchalari tashkil etadi. Har qanday pedagogik faoliyatga kirishishdan oldin **kimni? nima uchun? nimani?** degan savollarga javob berish zarur. **Kimni?** savoli pedagogik faoliyatning maqsadini, **nima uchun?** savoli vazifasini, **nimani?** savoli o‘qitishning mazmunini belgilab beradi¹.

Komil shaxsni shakllantirish adabiyot o‘qitishning bosh maqsadi. Bu umumiyl tushuncha bo‘lib, istiqbolni belgilaydi (ya’ni kimni? o‘qitiladi).

Oddiy o‘quvchidan kitobxon o‘quvchini tayyorlash, bolalarni badiiy so‘zdan ta’sirlanadigan, uning josibasini his etadigan, haqiqiy badiiy asarni taniydigan, o‘qigan badiiy asarini tahlil eta biladigan va undan o‘ziga xulosa chiqarishga qobil, o‘z qarashlarini og‘zaki va yozma ravon ifoda eta oladigan, badiiy asar o‘qishni o‘zining birinchi hayotiy ehtiyojiga aylantirgan o‘quvchi shaxsini shakllantirish bosh vazifa sifatida turadi. Bu tushuncha xususiy bo‘lib, joriy faoliyatni belgilaydi (ya’ni nima uchun? o‘qitiladi).

Nimani? o‘qitilishi lozimligi to‘g‘risidagi **ta’lim mazmuni** o‘quvchilarga beriladigan bilim va singdiriladigan amaliy ko‘nikmalar **direktiv hujjatlar** (Lotincha so‘z bo‘lib, yuqori rahbar organlar tomonidan berilgan va bajarilishi majburiy sanalgan rasmiy yo‘l-yo‘riq, dastur, ko‘rsatma), darslik hamda qo‘llanmalarda aks yettiriladi.

Istiqlol har bir sohaga yangicha fikrlashni, yuksalishni, taraqqiy etishni hayotiy zaruratga aylantirdi. Bu narsa ta’lim jarayonida ham ijobiy o‘zgarishlar, islohotlar, yuksalishlar bo‘lishiga olib keldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Respublika Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlagan nutqida ta’limni taraqqiy yettirish to‘g‘risida shunday xitoblar yangraydi: “Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yerosti va yerusti boyliklari bilan, balki, birinchi navbatda, o‘zining yuksak ma’naviyati bilan kuchlidir...”, “...Tarbiyachilarning o‘ziga zamonaviy bilim berish, malakasini oshirish kabi pasalga solib bo‘lmaydigan dolzarb masalaga duch

¹ Qodirov V. Adabiyot o‘qitish metodikasi. //ma’ruza matnlari //. – Andijon. 2010. 15-bet.

kelmoqdamiz...”, “Eski qolipda, mustabid davrda yozilgan darsliklardan foydalanib, eski mafkuradan xalos bo‘lmasdan bolalarimizni yangicha fikrlashga o‘rgatolmaymiz, axir...”, “Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrladigan etib tarbiyalanadi... ”¹.

Respublikamiz ta’lim-tarbiya tizimida borayotgan tub islohotlar jarayonining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-nazariy, iqtisodiy hamda tashkiliy asosi bo‘lmish “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun” (1997 yil 29 avgust), “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” (1997 yil 29 avgust), Respublika Prezidentining farmonlari va hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar o‘quv predmetlari bo‘yicha davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari hamda boshqa o‘quv-metodik vositalarni yanada takomillashtirishni taqozo etib, ta’limni sifat jihatdan yangilashni talab qilmoqda.

Bu narsa adabiy ta’lim jarayonini ham mazmunan boyitish, yuksaltirishni hayotiy zaruratga aylantirdi. Adabiyotni o‘qitish boshqa fanlarni o‘qitishdan keskin farq qiladi. Aniq fanlarni o‘qitishda o‘qituvchi o‘quvchilariga insoniyat tomonidan kashf etilgan tayyor bilimlarni o‘rgatadi. Bunda o‘quvchilar ham ortiqcha zo‘riqishlarsiz, qiynalishlarsiz tayyor bilimlarni o‘zlashtiradilar. Yana bir jihat, bunday fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilar barchasi yagona echimga, xulosaga keladilar va bu ilmiy yagona haqiqat hisoblanadi.

Adabiy ta’lim har bir o‘quvchidan o‘zgacha badiiy idrokni, asrni his etishni, kashf qilishni va yagona xulosaga emas, turfa yechimlarga, xulosalarga kelishi tabiiy hol sifatida baholaydi, to‘g‘ri deb biladi. O‘quvchilar bitta asarni o‘qib o‘raganishsada, undan turlicha hissiy ta’sirga, quvvatga ega bo‘ladilar, rango-rang xulosalar yasaydilar.

O‘quvchilarning badiiy tafakkurini o‘sirishda; badiiy asarlar, ayniqsa, hikoya janrining imkoniyatlarini to‘liq ochib berilishida; so‘z sehri, qudratini teran his qilinishida; hayotning asl suratini – badiiy talqinini o‘qib, zaruririy xulosalar hosil qilinishida; o‘tmish bilan bugun o‘rtasidagi taraqqiyot darajasini muqoyasa qilinishida; fikrni ifodalashning sodda, siqiq shakllarini o‘rganib, mantiqiy fikrlash

¹ Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т. “Шарқ”. 1997. 4-10 бетлар.

imkoniyatlarini kengaytirilishida; o‘quvchining olam haqidagi, odam haqidagi bilimlarini boyitishda, shubhasiz, Abdulla Qahhor asarlarining ham alohida o‘rni, mavqeい bor.

Adabiy ta’lim amaliyotida Abdulla Qahhor asarlarini: hikoya, qissa va romanlarini o‘rganish yuzasidan juda boy pedagogik tajriba to‘plangan, ommalashtirilgan. Bir qarashda, adib asarlarini o‘rganish yuzasidan aytilmagan fikr, tavsiya etilmagan metod yoki usulning o‘zi qolmagandek. Chindan ham, Abdulla Qahhor asarlari o‘zbek adabiy ta’lim jarayonida uzoq yillardan beri o‘rganilmoqda, o‘rgatishning yangi-yangi qirralari kashf etilib, keng o‘qituvchilar jamoasiga amaliy foydalanish uchun tavsiya etilmoqda.

Shunday bo‘lsa-da, aytish mumkinki, Abdulla Qahhor asarlarini o‘rganishda hali yechimini kutayotgan bir qancha muammolar yo‘q emas.

Masalan:

1. Adib asarlari matni ustida ishslashning istiqbolli ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish.
2. Abdulla Qahhor hikoyalari misolida hikoya janri tadqiqini yangi pog‘onaga yuksaltirish.
3. Abdulla Qahhor asarlari orqali o‘quvchilarning fikrlash quvvatini oshirish, so‘zdan foydalanish uquvini, shakllantirish, mustahkamlash, badiiy tafakkurini o‘stirish.
4. Abdulla Qahor asarlarini o‘rganishning innovatsion metod va usullari tizimini ishlab chiqish.
5. Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish yuzasidan yangilangan uslubiy qo‘llanmalar yaratish.

Abdulla Qahhor ijodini o‘rganishga yangicha yondashuv maqsadi yo‘lida olib borgan kichik tadqiqotimizni, sa’y-harakatimizni ummondan tomchi sifatida baholash mumkin. Tadqiqot, avvalo, bizda o‘zimizga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamladi; Abdulla Qahhor ijodini chuqurroq tahlillash imkonini yaratdi; adabiy ta’lim jarayoni haqidagi bilimlarimizni boyitdi; Respublikamizda faoliyat olib borayotgan ilg‘or pedagoglarimizning ish tajribalaridan bahramand etdi; hikoya janrining cheksiz imkoniyatlarini kashf qildik; o‘quvchilar jamoasi bilan ishslash

ko‘nikmalarini hosil qildik; maktab hayotiga, ta’lim berish jarayoniga kirib bordik; elkamizga og‘ir va sharaflı kasbiy mas’uliyat yuklanayotganini teranroq his qila boshladik; o‘zimizda ijodkorlik, tadqiqotchilik, ilmga, izlanishga chuqurroq mayl, istak – maqsad tuydik; kelajak padagogik faoliyatimizda oddiy, bir maromda tebranuvchi o‘qituvchi bo‘lib emas, aksincha, tinimsiz izlanadigan, olg‘a intiladigan, ilmga boy, metodik tajribaga hisobsiz o‘qituvchi bo‘lish maqsadi qat’iy qaror topdi; eng muhimi, bizlarga nazariy, amaliy saboq bergen ustozlarimizning mehnatlari zoe ketmaganini o‘zimiz misolimizda idrok etdik; dillarimizni g‘urur, shunday yurtda yashash baxtidan shukronalik, o‘qituvchi degan sharaflı, muqaddas nomga hamisha munosib bo‘lish kabi pokiza tilaklar, ezgu maqsadlar egalladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T: ma’naviyat, 2011.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Xalq so‘zi. // 2016-yil 16-dekabr.
3. Abdulla Qahhor. Shaxs va ijodkor.Maqlolar to‘plami. – T.: Tamaddun, 2013
4. Ahmedov S., Qo‘chqorov R., Rizaev Sh. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. 1-qism. – T.: Sharq, 2013.
5. Ahmedov S., Qosimova B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot-6. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –T.: Ma’naviyat. – 2009
6. Чўлпон. Адабиёт надир? –Т.:Чўлпон нашриёти, 1994. Б. 6-8
7. XX asr o‘zbek hikoyasi antologiyasi.–T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti”. 2009, 3- 4-betlar.
8. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
9. Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. – T.: Sharq, 2013.
- 10.Yo‘ldoshev Q. O‘qituvchi kitobi. (7-sinf darslik majmuasi uchun) –T.: O‘qituvchi, 1997. –230 b.
11. Karimov N.XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O‘zbekiston, 2008.
12. Ibrohim Haqqul. Abdulla Qahhor jasorati. *Esse*. // «Tafakkur» jurnali, 2007.
13. Matchonov S. Kitob o‘qishni bilasizmi? –T.: O‘qituvchi, 1993.
14. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Monografiya. –T.: Fan, 2006.
15. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning samarali shakl va metodlari. –T.: Fan, 1995.
16. Niyazmetova T.R. Adabiy ta’limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish G‘G‘ Til va adabiyot ta’limida yangi pedagogik texnologiyalar. 1-qism. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. – B. 6-10.

17. Niyozmetova R. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. Monografiya. – T.: Fan, 2007.
18. Normatov U. Ustoz ibrati. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
19. Шарафиддинов О. Абдулла Қаххор. – Т: Ёш гвардия, 1988. Б. 2
20. Ochil S. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari: (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, akademik I.A.Karimov asarlari misolida). 2-to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri.. –T.: O‘qituvchi, 1997.
21. Qozoqboy Yo’ldoshev. Yoniq so’z. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. 94-b.
22. To‘xliev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: Yangi asr avlodi, 2006.
23. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili, adabiyot, O‘zbek tili. (5-9 sinflar) – T., 2010.
24. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. Toshkent: Tamaddun, 2010.
25. Husanboeva Q. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari. –T.: O‘zinkomtsentr, 2003.
26. Исматов С. Мактабда Абдулла Қаххорнинг ҳаёти ва ижодини ўрганиш // иккинчи нашри. Адабиёт ўқитувчилари учун қўлланма. – Т: “Ўқитувчи”. 1978.
27. Долимов С, Убайдуллаев X, Аҳмедов К. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: “Ўқитувчи”. 1967.400-403-б.
28. WWW. Google.com
29. WWW. Ziyo.com
30. Old. Ziyonet.uz